



Oral-B



Pampers

P&G



Barcha brendlar, sizni himoya qilish uchun bitta siyosat.



Siz yoqtiradigan kontent.

Biz ma'lumotlardan sizga tegishli mahsulotlar va takliflar bo'yicha tajribangizni moslashtirishda yordam berish uchun foydalanamiz. Biz ulardan yana siz bitta xabarni qayta-qayta ko'rmasligingizga ishonch hosil qilish uchun ham foydalanamiz.



MAXFIYLIK YUZASIDAN QOIDALAR

2025-yil 28-chi avgustda yangilangan

[Ushbu Maxfiylik yuzasidan qoidalarining nusxasini yuklab oling.\(PDF\)](#)

Ko'p so'raladigan savollar

—

Shaxsiy ma'lumotlaringizni belgilangan qonunlarga asosan qanday to'plashimiz, saqlashimiz va ulardan qanday foydalanishimiz haqida so'raladigan umumiy savollar.

Biz shaxsiy ma'lumotlaringizni moddiy kompensatsiyasi uchun sotamizmi?

[Yo'q](#)

Shaxsiy ma'lumotlaringizni uchinchi tomonlarga oshkor qilamizmi?

[Ha, bizda buning uchun qonuniy asoslar mavjud bo'lganda.](#)

Biz boshqa kompaniyalardan siz ruxsat bergan shaxsiy ma'lumotlarni olamizmi?

[Ha](#)

Biz shaxsiy ma'lumotlaringizdan mahsulotlar bo'yicha yaxshiroq tavsiyalar berish va sayt bilan ishlashdagi tajribangizni yaxshilash uchun foydalanamizmi?

[Ha, bizda buning uchun qonuniy asoslar mavjud bo'lganda.](#)

Biz sizga shaxsiy ma'lumotlaringiz nazoratini beramizmi?

[Ha](#)

Shaxsiy ma'lumotlaringizni qanday nazorat qilishingiz haqida

–

Shaxsiy ma'lumotlaringizni o'zingiz nazorat qilasiz. Siz huquqingizdan foydalanishingiz va afzal bilgan narsalaringizni istagan vaqtingizda o'zgartirishingiz mumkin.

✓ Shaxsiy ma'lumotlar subyekti huquqlariga oid so'rovlar

Joylashuvingizdan kelib chiqib (siz istiqomat qiladigan yurisdiksiya), sizga turli darajada ma'lumotlar subyekti huquqlari taqdim etilishi mumkin. Bunga kirish, o'chirish, tuzatish/to'g'rilash, marketingga oid elektron xatlar yoki matnli xabarlar olishdan voz kechish va yoxud e-pochta manzilingiz yoki telefon raqamingizdan reklama maqsadlarda foydalanish kabilar kirishi mumkin. Ma'lumotlar subyekti huquqi so'rovlari bo'yicha yurisdiksiyangizga so'rov yuborish uchun, [bu yerga](#) bosing.

Siz ushbu xabarlar bilan birga yuborilgan rad qilish bo'yicha ko'rsatmalarga amal qilgan holda, bizdan o'zingizga elektron xatlar va matnli xabarlarni yuborishni to'xtatishni ham so'rashingiz mumkin. Shuni yodda tutingki, sizning tanlovingizni hisobga olish uchun biz muayyan ma'lumotlarni saqlashimiz zarur bo'lishi mumkin (masalan, agar bizga marketingga oid e-pochta xabarlarini yuborishni to'xtatishni aytsangiz, ushbu e-pochta manziliga bundan buyon marketingga oid xabarlar yuborilishini istamayotganingizni tizimlarimiz eslab qolishi uchun bizga e-pochta manzilingiz kerak bo'ladi).

Bundan tashqari so'rovingizni biz qondira olmaydigan vaziyatlar ham bo'lishi mumkin (masalan, biz tranzaksiyalar haqidagi ma'lumotlarni saqlashga yoki firibgarliklarning oldini olish, xavfsizlikni ta'minlash yoki boshqa narsalar qatori boshqalar maxfiyligini himoya qilish yoki qonuniy da'volar yaratish, ijro etish yoki himoya qilishga qonuniy majburiyatimiz bo'la turib, ularni yo'q qilish).

✓ Xulq-atvorga oid an'anaviy onlayn reklama

✓ **Qiziqishingizga oid reklama bo'yicha tanlovingizni qanday amalga oshirishingiz**

Reklamalardan voz kechish/ bekor qilish

Amerika Qo'shma Shtatlari uchun qiziqishlarga oid reklama tanlovini amalga oshirish uchun siz Raqamli reklama alyansi ("DAA") tomonidan taqdim etilgan bekor qilish mexanizmini [bu yerga bosish](#) (brauzerlar uchun) yoki [bu yerga](#) (ilovalarga oid bekor qilishlar uchun) bosish orqali foydalanishingiz mumkin.

Tarmoq reklama tashabbusi ("NAI") iste'molchilarga NAI a'zolari reklama tarmoqlari tomonidan taqdim etiladigan qiziqishga asoslangan reklamalarni bekor qilish imkonini beradigan vosita ishlab chiqdi. Bunday maqsadli reklamani bekor qilish yoki NAI vositasidan foydalanish haqida batafsil ma'lumot olish uchun quyidagi saytga kiring: <http://www.networkadvertising.org/choices/>.

Yevropa uchun siz DAA-Yevropaning bekor qilish dasturi haqida batafsil ma'lumot olish uchun [bu yerga](#) bosing.

Kanada uchun siz DAA-Kanadaning bekor qilish dasturi haqida batafsil ma'lumot olish uchun [bu yerga](#) bosing.

Unified ID 2,0 ni dunyo bo'ylab bekor qilish uchun [bu yerga bosing](#).

Onlayn platformani bekor qilish

P&G sizga qiziqish asosida reklama yuborish maqsadida sizga bog'langan identifikatorlarni masalan, e-pochta manzilingizning xeshlangan versiyasini onlayn platformalar, va shunga o'xshash vositalar, orqali baham ko'rishni mumkin. Ushbu platformalar sizning ma'lumotlaringizdan qanday foydalanishi va ushbu ma'lumotlardan foydalanishni qanday boshqarishingiz haqida ko'proq bilish uchun quyidagi havolalarga o'ting.

- [Google](#)
- [Meta](#)
- [Microsoft / Bing](#)
- [Pinterest](#)
- [Reddit](#)
- [Snap](#)

- [TikTok](#)

Ayrim qiziqishga asoslangan reklamalarni bekor qilgan bo'lsangiz ham, boshqa reklamalarni olishda davom etishingiz mumkin ekanini inobatga oling. Undan tashqari, NAI yoki DAA a'zolaridan biri yoki bir nechtasini bekor qilish o'sha tanlangan a'zolar ortiq DAA / NAI qoidalariga asosan ayrim maqsadli reklamalarni sizga ko'rsatmaydi deganini bildiradi. Bu tegishli DAA / NAI a'zolari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarga ta'sir etadi, ammo bu sizning ortiq dasturdan tashqari tomonlardan maqsadli reklama olmasligingizni anglatmaydi. Shuningdek, brauzerlaringiz siz bekor qilgan sahifaga kirganda cookie-fayllarni rad etadigan qilib sozlansa, yoki siz cookie-fayllarni o'chirsangiz, boshqa qurilma yoki veb brauzer(lar)dan foydalansangiz, yoki kirish uchun brauzerdan boshqa uslubdan foydalansangiz, sizning DAA / NAI brauzerga asoslangan bekor qilish tanlovingiz o'z kuchini yo'qotishi mumkin. Mobil qurilmada bekor qilishlar ayni qurilmadagi brauzerga asoslangan qiziqishga oid reklamalarga ta'sir etmaydi va siz har bir qurilma uchun alohida bekor qilishlardan foydalanishingiz lozim. Biz uchinchi tomonlarning bekor qilish variantari yoki dasturlarining samaradorligi yoki muvofiqligi yoki ularning dasturlar haqidagi bayonotlarining aniqligi uchun javobgar emasmiz.

Siz yana brauzer(lar)ingizdagi yoki mobil qurilmalaringizdagi cookie-fayllarni rad qilgan, odatda ilovalarni o'rnatishda mavjud bo'ladigan "ma'lumotlarga kirish huquqini" bekor qilgan holda yoki qurilmangizda reklamani kuzatib borish parametrlarini sozlash yo'li bilan saytlardagi shaxsiylashtirilgan reklamani tarqatishni taqiqlashingiz yoki kamaytirishingiz mumkin.

Agar siz e-pochta manzilingiz yoki telefon raqamingizni bizga marketing maqsadlarida bergan bo'lsangiz, ular orqali shaxsiy qiziqishlaringizga mos reklamalar ham olib turishingiz mumkinligini yodda tuting. Foydalanishni to'xtatish uchun [bu yerda](#) biz bilan bog'laning (*Eslatma: yuqori chap burchakdagi tugmani bosish orqali o'zingizning to'g'ri yashash manzilini/mamlakatini tanlaganingizga ishonch hosil qiling.*).

Siz foyda olishga ko'zlangan reklamalarni bekor qilgan bo'lsangiz ham "kontekstual" reklamalarni ko'rasiz. Biz sizga shaxsiylashtirilgan reklama e'lonlarini yuborishni to'xtatsak ham siz o'z kompyuteringiz yoki mobil qurilmalaringizda brendlarimizdan e'lonlar olishda davom etasiz. Bu e'lonlar siz tashrif buyuradigan saytlarning kontekstiga asoslanadi va ular kontekstli e'lonlar deb ataladi. Siz kompyuteringizda yoki mobil telefoningizda turli vaqtlarda va turli aloqador bo'lmagan xizmatlarga tashrif buyuradigan sahifalarga asoslanuvchi shaxsiylashtirilgan reklamadan farq qilgan holda kontekstli e'lonlar - siz tashrif buyuradigan aniq bir sayt konteksti asosida sizga ko'rsatiladigan e'lonlardir. Masalan,

siz internetda bolalarga mo'ljallangan tovarlarni ko'ra turib bola parvarishi bo'yicha tovar brendlarimizdan birining reklamasini ko'rasiz, chunki bu saytlarga an'anaga ko'ra asosan yosh ota-onalar yoki yaqinda ota-ona bo'ladiganlar tashrif buyuradilar. Siz yana shuni bilishingiz kerakki, biz hali ham kompyuteringiz yoki qurilmangizdan ma'lumotlar to'plashimiz va ulardan veb-saytlarimizning ishlashini baholash, iste'molchilar ehtiyojini o'rganish yoki tegishli qonunlarga asosan firibgarlikni aniqlash kabi boshqa maqsadlarda foydalanishimiz mumkin.

✓ **Cookie fayllarni boshqarish imkoniyati**

Siz brauzeringizni barcha cookie-fayllarni o'chirib qo'yish yoki kompyuteringizga cookie-faylni yuborishda bu haqida xabar qilishga sozlashingiz mumkin. Biroq bu saytlarimiz yoki xizmatlarimizning yaxshi ishlashiga xalaqit berishi mumkin. Siz o'z brauzeringizni o'zingiz ko'rishni yakunlagandan keyin cookie-fayllarni o'chirib tashlashga sozlashingiz ham mumkin.

Siz shaxsiylashtirilgan reklamani bekor qilganingizda rad etish cookie-fayllar brauzeringizga yuboriladi, va bu bizga sizning bizdan boshqa shaxsiylashtirilgan reklama e'lonlarini olishni xohlamasligingizni bildiradi. Agar siz brauzeringizdagi barcha cookie-fayllarni o'chirishga qaror qilsangiz, sizning bekor qilish cookie-faylingiz o'chiriladi. Bu agar siz shaxsiylashtirilgan reklamalarni olishni xohlamasangiz, rad qilish jarayonini siz cookie-fayllarni o'chirgan har bir brauzerda qaytadan bajarishingizga to'g'ri kelishini anglatadi.

Ayrim marketlarda va ayrim veb-saytlarimizda biz sizga ba'zi cookie-fayllar turkumlariga oid tanlovni qilish imkonini beradigan cookie-fayllarga rozilikni boshqarish platformasini taklif etamiz. Agar u mavjud bo'lsa, bu cookie-banner shaklida va/yoki tegishli veb-saytlarda ko'rinadigan ikonka shaklida chiqadi. Biz shu kabi texnologiyani mobil ilovalarda taqdim etishimiz mumkin, undan tegishli ilovaning sozlamalar menyusi orqali foydalanish mumkin bo'ladi.

✓ **AQSH davlat Maxfiylik Qonunlari**

Ayrim shtatlarning maxfiylik qonunlari tomonidan talab etilgan ma'lumotlar va shunday qonunlar ostidagi maxfiylik huquqlari haqida ma'lumot olish uchun quyidagi "[AQSH davlat maxfiylik ko'rsatmasi](#)" bilan tanishing.

✓ **EEA, Shveytsariya, Buyuk Britaniya va Serbiya fuqarolari uchun qo'shimcha ma'lumotlar**

Agar siz EEA, Shveytsariya, Buyuk Britaniya yoki Serbiyada yashasangiz yoki EEA, Shveytsariya, Buyuk Britaniya yoki Serbiyada bo'lsangiz, bizda siz haqingizda

mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarga kirishingiz, aniq bo'lmagan, eskirgan yoki bundan buyon kerak bo'lmaydigan ma'lumotlarning tuzatilishi, o'chirilishi yoki cheklanishini talab qilishingiz va bizdan ma'lumotlaringizni boshqa xizmat provayderiga o'tkazishingizga imkon beruvchi formatda taqdim etishimizni so'rashingiz mumkin. Shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlashda biz sizning roziligingizga tayanadigan holatlarda istalgan vaqtda roziligingizni qaytarib olishingiz mumkin. Hamda qayta ishlash bizning qonuniy manfaatlarimizga asoslanadigan hollarda (bu bizning ma'lumotlardan ma'lum maqsadda foydalanish uchun qonuniy sababga egaligimizni va bu sabab sizning P&G dan foydalanmaslikka oid qiziqishingizdan ustun emasligini anglatadi) shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlashimizga e'tiroz bildirishingiz mumkin (bu bizdan ularni qayta ishlashni to'xtatishni so'rashingizni anglatadi). So'rov yuborish uchun [biz bilan bog'laning](#).

Agar siz ma'lumotlarni himoya qilish va umuman shaxsiy ma'lumotlarga oid huquqlaringiz to'g'risida ko'proq ma'lumotlar olishni xohlasangiz, Yevropa Ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha nazoratchining <https://edps.europa.eu/data-protection/> yoki Buyuk Britaniyaning Axborot maxsus vakili ofisi saytiga <https://ico.org.uk> yoki <https://www.edoeb.admin.ch/edoeb/en/home.html> manzilidagi Shveytsariya Federal ma'lumotlarni himoya qilish va axborot vakili saytiga yoki <https://www.poverenik.rs/en/home.html> manzilidagi Serbiya vakili saytiga (jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha ma'lumotlar olish uchun) kiring. Agar siz talabingizga javobimizdan qoniqmagan bo'lsangiz, mamlakatingizdagi ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha vakolatli organga shikoyat qilishingiz mumkin.

Procter and Gamble España SA Ispaniyaning ma'lumotlarni ro'yxatga olish agentligida rasman ro'yxatdan o'tgan "Ma'lumotlarni AUTOCONTROLda himoya qilish bo'yicha axloq kodeksiga rioya qiladi, shuning uchun unga www.autocontrol.es saytida qiziqqan odamlar uchun mavjud bo'lgan hamda ma'lumotlarni himoyalash va reklama bilan bog'liq ma'lumotlarni qayta ishlashga oid shikoyatlarni ko'rib chiqishning suddan tashqari tizimi qo'llaniladi.

✓ Stomatologlar

Agar siz stomatolog bo'lsangiz va shaxsiy ma'lumotlarni axborot-targ'ibot dasturlarimizdan biri, jumladan <https://www.dentalcare.com> orqali taqdim etgan bo'lsangiz, bizga mahalliy P&G vakili, ya'ni Oral-B orqali murojaat qiling.

✓ Sog'liq saqlash mutaxassislari

Agar siz sog'liqni saqlash mutaassisi bo'lsangiz va shaxsiy ma'lumotlarni axborot-targ'ibot dasturlarimizdan biri orqali yoki boshqa hamkorlik shaklida taqdim etgan bo'lsangiz, bizga mahalliy yoki mintaqaviy P&G vakili orqali murojaat qiling.

✓ **Iste'molchilarni tadqiq qilish tadbiri ishtirokchilari**

Biz Sizning tadqiqotlarimizda ishtirokingiz vaqtida olishimiz mumkin bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan so'rov yuborish uchun Sizning rozilik varaqangizda ko'rsatilgan kontakt ma'lumotlariga murojaat qiling, qo'ng'iroq qiling yoki o'zingizning marketing tadqiqotlari markazingizga tashrif buyuring.

Shaxsiy ma'lumotlarni qanday to'plashimiz va foydalanishimiz haqida –

Ko'p brendlar singari biz ham sizning biz bilan o'zaro aloqadangizda yoki shaxsiy ma'lumotlaringizni uchinchi tomonlarga ulashganingizda ushbu ma'lumotlarning shu qatorda biz bilan almashinishi orqali to'playmiz. Biz buni huquqlaringizni himoya qilgan holda hurmat va ehtiyotkorlik bilan amalga oshiramiz. Shaxsiy ma'lumotlar bizga sizni iste'molchi va inson sifatidagi qiziqishlaringiz va afzal ko'rgan narsalaringiz haqida yaxshiroq tushunchaga ega bo'lishimizda yordam beradi.

✓ **Biz shaxsiy ma'lumotlarni qanday to'playmiz**

Biz siz haqingizdagi shaxsiy ma'lumotlarni turli joylardan va ko'pgina usullarda to'playmiz. Biz to'playdigan shaxsiy ma'lumotlardan ayrimlari sizni tanitishda foydalanish mumkin bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin; masalan, ismingiz, elektron pochta manzilingiz, telefon raqamingiz yoki pochta manzilingiz. Ayrim yurisdiksiyalarda IP-manzili, cookie-fayllar va mobil qurilmalarning identifikatorlari ham shaxsiy ma'lumotlar bo'lib hisoblanishi mumkin. Biz to'playdigan ayrim shaxsiy ma'lumotlar nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus toifadagi ma'lumotlar hisoblanadi va ular hisob qaydnomasiga kirish ma'lumotlari, moliyaviy ma'lumotlar, aniq geografik joylashuv ma'lumotlari, davlat tomonidan berilgan identifikatorlar, irqiy yoki etnik kelib chiqishi, aqliy va jismoniy salomatlik ma'lumotlari / holati, [Mijozning salomatligiga oid ma'lumotlar](#), jinsiy hayot yoki jinsiy orientatsiya, transgender / ikki jinsdan biriga tegishli bo'lmagan holat, bolalar ma'lumotlari, jinoiy ma'lumotlar, genetik ma'lumotlar va shaxsni aniqlash maqsadida foydalaniladigan biometrik ma'lumotlar kabilarni o'z ichiga olishi mumkin.

✓ **Siz buni bevosita ulashasiz**

Siz saytlarimiz yoki mobil ilovalarimiz orqali hisob qaydnomasi ochish uchun ro'yxatdan o'tayotganingizda, telefon va yoxud elektron pochta orqali biz bilan bog'lanayotganingizda yoki P&G so'rovida qatnashayotganingizda shaxsiy ma'lumotlaringizni bizga bevosita taqdim etasiz. Biz Sizdan ismingiz, elektron pochta manzilingiz yoki uy pochta manzilingiz, tug'ilgan sanangiz, to'lov ma'lumotlari, yoshingiz, jinsingiz, oilangizdagi kishilar soni hamda bizning mahsulotlarimiz va xizmatlarimiz haqidagi ma'lumotlarni Sizga, masalan, Sizning uy manzilingizga, elektron pochta manzilingizga yoki matnli xabar orqali

yuborishimizni xohlashingiz yoki yo'qligi kabi ma'lumotlarni bizga taqdim etishingizni so'rashimiz mumkin.

✓ **Siz veb-saytlar va e-pochta xabarlarini orqali o'zaro aloqada bo'lasiz**

Biz Siz saytlarimizga tashrif buyurganingizda, e'lonlarimizni ko'rganingizda yoki mahsulotlarimiz yoki xizmatlarimizdan foydalanganingizda ma'lumotlarni avtomatik tarzda to'playdigan texnologiyalardan foydalanishimiz mumkin. Masalan, biz Sizning qanday brauzeridan va operatsion tizimdan foydalanishingiz, IP-manzilingiz, Siz tashrif buyuradigan veb-sahifalar, Siz o'tgan havolalarni hamda xatimizni ochganligingiz yoki yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlar kabi onlayn harakatlaringiz haqida bilish uchun cookie fayllaridan (kompyuteringiz brauzerida saqlanuvchi kichkina fayl) foydalanamiz.

✓ **Siz mobil ilovalar va boshqa qurilmalardan foydalanasiz**

Sizga eng yaxshi xizmat ko'rsatish uchun biz telefoningizdan (mobil ilovalarimizdan foydalanilgan hollarda) va uyingizdagi "smart" qurilmalardan ma'lumotlar to'plovchi texnologiyalardan foydalanishimiz mumkin. Siz bunday ilovani yuklab olish va internetga ulanuvchi maishiy qurilmalarni o'rnatish orqali bunday ma'lumotlarni berishga rozi bo'lasiz. Bu ma'lumotlar mobil telefoningiz yoki qurilmaning boshqa identifikatori, telefoningiz operatsion tizimi, siz tomoningizdan bunday ilovadan yoki qurilmadan foydalanilishi, joylashgan joyingiz yoki ayrim yurisdiksiyalarda shaxsiy hisoblanadigan boshqa ma'lumotni o'z ichiga olishi mumkin. Telefoningizda yoki qurilmada siz suzib chiquvchi bildirishnomani olasiz, va bu sizga biz tomonimizdan sizning aniq geolokatsiyangizni (siz joylashgan yoki Internetga kiradigan joy) aniqlashimizga yoki tegishli qonunlarga asosan shaxsiy ma'lumotlaringizni to'plash yoki foydalanishga ruxsat berish yoki rad qilishga imkon beradi.

✓ **Siz Hamkorlar yoki Uchinchi tomonlar bilan bog'lanasiz**

Biz boshqa kompaniyalar bizga beradigan yoki sotadigan ma'lumotlaridan foydalanishimiz mumkin. Masalan, siz boshqa kompaniyaning telekommunikatsiya xizmatlarini olish yoki chakana savdo do'konlari uchun sodiqlik bo'yicha bonus dasturida qatnashish orqali ularga shaxsiy ma'lumotlaringizni biz bilan bo'lishishlariga rozilik berasiz. Imkoni bo'lganda, biz shaxsiy ma'lumotlarni yana internet postlari, bloglardagi matn, videolar yoki ijtimoiy tarmoq saytlari kabi ochiq manbalardan to'playmiz. Biz yana shaxsiy ma'lumotlarni boshqa kompaniyalardan, masalan, hammabop ma'lumotlar bazasidan (tegishli mahalliy qonun talablariga muvofiq) yoki siz bunday ma'lumotlardan foydalanishingizga, jumladan, ma'lumotlaringizdan biz foydalanishimizga ham rozilik berishingiz bilan ma'lumotlarni olgan holda o'zingiz haqingizdagi shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va jamlash bilan shug'ullanuvchi iste'molchilar ma'lumotlarini qayta sotuvchi boshqa kompaniyalardan ham olishimiz mumkin. Bularga daromad darajangiz,

yoshingiz, jinsingiz, oila a'zolarining soni va siz internetda yoki yaqin-atrofdagi do'konlardan xarid qiladigan mahsulotlar haqidagi ma'lumotlar kirishi mumkin.

✓ Biz shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishimizning umumiy ko'rinishlari

Biz shaxsiy ma'lumotlardan maqsadlarimiz - butun dunyo bo'ylab Siz kabi kishilarning hayotiga ta'sir qilish va uni yaxshilashga erishish uchun foydalanamiz. Masalan, biz ma'lumotlaringizdan quyidagi qayta ishlash maqsadlarida foydalanamiz:

- [Mahsulotlar/Xizmatlar](#). Bunga sizga xizmat ko'rsatish va siz talab qilgan mahsulotlar yoki namunalarni yuborish kiradi.
- [Mijozlar Boshqaruvi](#). Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - Sizni turli marketing dasturlarimiz va veb-saytlarimizda tanib olish va haqiqiyliginizni tekshirish
 - Hisoblar va parametrlarni hamda moliyaviy tashabbuslar, mukofotlar, chegirmalar (masalan, narx yoki xizmat kuponlari) va sodiqlik dasturlarini (birgalikda "Mukofotlar dasturlari") boshqarish va saqlash
 - P&G saytingizni yoki ilova parametrlarini boshqarishda sizga yordam berish
 - Sizga bizning musobaqalar yoki lotereyalarga kirish va reytinglar va sharhlar qoldirish imkonini berish
- [Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar](#), jumladan:
 - Sizning ma'lumotlar olish to'g'risidagi savollaringiz yoki talablaringizga javob qaytarish
 - Mijozlar xizmatini ko'rsatish
 - Tranzaksiyalarga oid xabarlar (bank hisobidan ko'chirmalar yoki tasdiqnomalar kabi) yuborish
 - Ijtimoiy tarmoqlarda siz bilan muloqot qilish
 - Mahsulotlarimiz va xizmatlarimiz (yoki hamkorlarimizning mahsulotlari va xizmatlari) haqida marketing materiallari, so'rovnomalar va taklifnomalar yuborish
- [To'lov/Moliyaviy](#), jumladan:
 - Bizdan sotib olayotgan mahsulotlaringiz uchun to'lovingizni qayta ishlash
 - Qoplab berishlar va yig'imlarni qayta ishlash

- [Reklama xizmatlari ko'rsatish](#). Bu sizga tegishli reklama taqdim etish va sizniki kabi profilga ega va bizdan ma'lumot olishni istaganlarga maxsus va o'xshash auditoriyalar orqali tegishli reklama taqdim etishni o'z ichiga oladi. Masalan, biz sizning heshlangan e-pochta manzilingizni ijtimoiy tarmoq xizmatiga yuklashimiz va o'sha ijtimoiy tarmoq xizmatidan reklamamizni sizga va siz kabi qiziqishga ega boshqa mamlakatlardagi odamlarga sizga va boshqalarga aloqador ma'lumotlardan kelib chiqib yuborishni so'rashimiz mumkin
- Reklama kampaniyalarining samaradorligini o'lchash va kuzatish kabi [Rekama boshqaruvi](#) hamda reklama kampaniyalariga oid boshqa boshqaruv va hisob-kitob faoliyatini yuritish
- [Sifat va xavfsizlik](#), jumladan:
 - Sifat nazorati, trening va tahlil
 - Xavfsizlikni saqlash va tekshirish
 - Tizim va texnologiyalarni boshqarish, jumladan, veb-saytlarimiz va ilova dasturlarimizni optimallashtirish
- [Xavfsizlik](#), jumladan, tahdidlarni aniqlash hamda zararli va firibgarlik xatti-harakatlaridan himoya qilish
- [Hisob-kitob yuritish va audit](#), jumladan iste'molchilar bilan hisob-kitob yuritish va audit, hamda, tranzaksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning bir qismi sifatida saqlanadigan jurnallar va yozuvlar borasida muloqot qilish
- [Qonuniylik/muvofiqlik](#), jumladan xatarlarni boshqarish, audit, surishtiruvlar, hisobot hamda boshqa qonuniylik va muvofiqlik sabablari.
- [Tadqiqotlar va ishlanmalar \("R&D"\)](#) jumladan
 - Ichki tadqiqotlar
 - Iste'molchilarimizni xursand qiladigan mahsulotlar, xizmatlar va dasturlarni loyihalash va rivojlantirish
- Siz shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etayotganda **To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar**
- Shaxsiy ma'lumotlaringizni to'plash bilan mos va qonun tomonidan taqiqlanmagan **qonuniy biznes maqsadlar**

✓ Cookie-fayllardan qanday foydalanamiz

Cookie-fayllar siz internet tarmog'i ichida kezayotganingizda kompyuteringizga yuboriladigan kichik fayllardir. Ular siz o'zingiz kirgan veb-saytlar bilan qanday

muloqot qilganingiz haqidagi foydali ma'lumotlarni saqlaydi. Siz cookie-fayllarni nazorat qilish haqida ko'proq ma'lumotni [bu yerda](#) olishingiz mumkin.

Biz cookie-fayllardan quyidagi kabi bir nechta yo'llar bilan foydalanamiz:

- sizga veb-sayt va uning funksiyalariga kirish imkoniyatini taqdim etish
- sizga tegishli reklama taqdim etish va bunday reklamanning samaradorligini o'lchash
- sizga keragidan ortiq reklama ko'rsatilmasligini ta'minlash ("chastota cheklovi" deyiladi)
- Sizning P&G kompaniyasi ma'lumotlari bilan qanday o'zaro aloqa qilishingiz haqida ko'proq bilish
- veb-saytlarimizga tashrif buyurganingizda tajribangizni yaxshilashimizga yordam berish
- til va mintqa kabi Sizning afzalliklarini eslab qolish, bu har bir tashrif buyurish vaqtida veb-saytni sozlash zaruriyatini istisno qilishga imkon beradi
- xatolarni aniqlash va bartaraf qilish
- veb-saytlarimizning qanchalik darajada samarali ekanligini tahlil qilish

✓ Biz foydalanadigan cookie-fayllarning turlari

Qat'iy zarur Cookie-fayllar: Ushbu cookie-fayllar (ba'zida "muhim" deb ataladi) sahifani yuklash imkonini beradi yoki ayrim funksiya bilan ta'minlaydi, bu fayllar mavjud bo'lmasa sahifa ishlamaydi (masalan, ma'lumotlaringizni xarid savatida saqlash).

Funksional cookie-fayllar: Bu cookie-fayllar saytlarga Siz yana ularga qaytganingizda Sizning afzalliklarini eslashga imkon beradi. Masalan, agar siz birinchi tashrif buyurishda saytni fransuz tilida ko'rsatishni tanlasangiz, keyingi safar saytga qaytganingizda sayt avtomatik ravishda fransuz tilida ko'rsatiladi. Shunday qilib har safar til bo'yicha afzal ko'rilgan variantni tanlashingiz shart bo'lmaydi, bu esa saytdan foydalanishni oson va samarali qiladi.

Reklama / Maqsadli cookie-fayllari: Bu cookie-fayllardan umumiy holda afzal ko'rganlaringiz haqida, masalan, Siz tashrif buyuradigan veb-saytlar va Siz xarid qiladigan mahlumotlar haqida bilish uchun foydalanish mumkin. Bu ma'lumotlar sizga yaxshiroq darajada mos keluvchi yoki ko'proq yoquvchi mahsulotlar va xizmatlar reklamasini yuborishimizga imkon beradi. Bu bitta reklamanning takrorlanishlar sonini cheklashimizga ham imkon beradi.

Tahlil / ijro cookie-fayllari: Bu cookie-fayllar bizga sizning qanday sahifalarga kirishingiz va qaysi havolalarni ochishingiz kabi veb-saytlarimizdan qanday foydalanishingiz haqida ma'lumot beradi. Bu bizga veb-saytlarimiz samaradorligini o'lchash va yaxshilashga imkon beradi. Biz turli yurisdiksiyalarda turlicha tahliliy cookie-fayllardan foydalanamiz. Ko'pgina hollarda saytlarimizning unumdorligini monitoring qilish uchun biz Google Analytics xizmatining tahlil cookie fayllaridan foydalanamiz. Google Analytics tomonidan to'plangan saytlarimizga tashrif buyurishlaringiz haqidagi ma'lumotlardan foydalanish va ularni uzatish imkoniyatimiz [Google Analytics dan foydalanish shartlari](#) va [Google maxfiylik yuzasidan qoidalar](#) bilan cheklangan.

Ijtimoiy tarmoq Cookie-fayllari: Bu biz saytga qo'shgan bir qator ijtimoiy tarmoq xizmatlari tomonidan o'rnatilgan cookie-fayllar sizga kontentni tanishlaringiz va tarmoqlarda ulashishga imkon beradi va bizga o'sha ijtimoiy platformalarda sizning saytlarimizga tashrifingizga aloqador reklama taqdim etish imkonini beradi. Ayrim ijtimoiy tarmoq saytlarining, masalan, Facebook, cookie-fayllari ham reklama maqsadida foydalaniladi.

✓ Qiziqishlarga asoslangan reklama

Siz hamkorlarimizning saytlariga tashrif buyurganingizda biz sizga o'zimiz siz ko'rishni xohlaydi, deb o'ylagan reklama yoki boshqa kontentni ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, agar siz bolalar kiyimlari yoki maktab o'quv qurollari sotiladigan saytlarga tashrif buyursangiz, siz Tide® kir yuvish kukuni reklamasini olishingiz mumkin. Bu ma'lumotlardan biz sizning farzandlaringiz bor va shuning uchun ham sizni kir yuvish uchun samarali vositalar qiziqtirishi mumkin, degan xulosa chiqarishimiz mumkin. Shunday qilib bizning maqsadimiz - sizga siz uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan mahsulotlarimiz haqidagi tegishli ma'lumotlarni yuborishdan iborat. Qiziqishlarga asoslangan reklama bo'yicha tanlovlaringiz borasida batafsil ma'lumot olish uchun [bu yerga](#) kiring.

Biz o'xshash qiziqishlarga ega iste'molchilar guruhlari tajribasidan o'qib-o'rganamiz: Biz sizni bir xil qiziqishlarni namoyon qiluvchi iste'molchilarning ma'lum guruhiga joylashtirishimiz mumkin. Masalan, agar siz internetda tez-tez soqol olish uskunalari xarid qilsangiz, biz sizni "soqol olish uskunolari ishqibozlari" guruhiga qo'shishimiz mumkin yoki agar biz sizni onlayn-kuponlardan foydalanishingiz yoki chegirmalar yoxud arzon sotuvlarni izlashingizni payqasak, siz "savdolashuvchi xaridor" aylanishingiz mumkin. Biz siz haqingizda bu narsalarni sizning ma'lum veb sahifalardagi faoliyatingiz, veb-saytlarimizda va siz kiradigan boshqa veb-saytlarda bosadigan havolalar, siz foydalanadigan mobil ilovalar yoki siz ko'radigan bizning brendga oid xabarlarimiz va xabarlarda bosadigan havolalar hamda chakana sotuv hamkorlarimiz va boshqa uchinchi tomonlar orqali to'plangan boshqa ma'lumotlarga tayanib xulosa qilamiz. Biz onlayn va/yoki oflayn rejimda o'xshash tarzda harakat qiluvchi iste'molchilar guruhining umumiy moyilliklari, odatlari va xususiyatlari haqida bilish uchun cookie fayllari bilan qurilmalar identifikatorlarini birlashtiramiz. Shunday qilgan

holda biz ularga fikrimizga ko'ra ular uchun dolzarb va foydali bo'lgan mahsulotlar va ma'lumotlarni yuborgan holda guruhda mavjud bo'lgan iste'molchilarga "o'xshash" bo'lgan boshqa ko'pgina iste'molchilarni topishimiz va ularga xizmat ko'rsatishimiz mumkin.

Biz boshqa ma'lumotlarni cookie fayllaringiz va qurilmangiz

identifikatorlariga bog'laymiz: Sizning cookie fayllaringiz va qurilmalaringiz identifikatorlari boshqa ma'lumotlar, masalan, siz oflayn tarzda xarid qiladigan mahsulotlar haqidagi ma'lumotlar yoki o'zingiz saytlarimizda qayd hisobini yaratganingizda bizga bevosita taqdim etgan ma'lumotlar bilan to'ldirilishi mumkin. Biz odatda buni sizning shaxsingizni bevosita tanitmaydigan usulda amalga oshiramiz. Masalan, ID ABC12345 cookie-fayl shaxsning veb-saytdagi tashriflari, yoshi, jinsi va xarid odatlariga asoslanib ustara sevuvchilar guruhiga tegishli ekanini bilamiz. Agar biz cookie-fayllar yoki qurilmalar identifikatorlari (veb-sahifalar va ilovalarni ko'rish tarixi) haqidagi shaxsan sizning ma'lumotlaringizni tanib olishni xohlasak, buni tegishli qonunlarga asosan amalga oshiramiz.

Biz Siz haqingizda kompyuterlaringiz, planshetlaringiz, telefonlaringiz va boshqa qurilmalaringizdan foydalanganingizda bilib olishimiz mumkin: Biz cookie-fayl identifikatori ABC12345 ning o'sha shaxs tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan yoki EFG15647 qurilma identifikatoriga ega bo'lgan mobil telefon bilan bitta uyga o'rnatilgan kompyuter ekanligini bilishimiz mumkin. Bu shuni anglatadiki, siz o'z noutbusingizda tagliklar izlashingiz, Google qidiruvi natijalaridagi biz homiylik qiladigan havolaga bosishingiz, keyin esa mobil telefoningizda bizning Pampers® tagliklarimiz reklamasini ko'rishingiz mumkin. Masalan, ularning har kuni bir vaqtda bitta Wi-Fi tarmoqqa ulanishlari tufayli biz berilgan kompyuter va telefonga aynan bitta odam egalik qiladi, deb faraz qilishimiz va shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Bitta odam yoki oilaning qanday qurilmalardan foydalanishini tushinish bitta reklamani sizning qurilmalaringizda takrorlashlar sonini cheklashimizga yordam beradi. Buning muhimligi shundaki, shu yo'l orqali biz sizga bitta reklamani ko'p marta yuborib jahlingiz chiqishini va bizga kerakli bo'lmagan bunday takrorlanuvchi e'lonlar uchun pul to'lashni oldini olamiz.

Manzilli ommaviy axborot vositalari: Siz saytlarimiz yoki ilovalarimiz orqali bizga shaxsiy ma'lumotlaringizni taqdim etganingizda o'zimiz sizga yoqishi mumkin deb o'ylagan reklamalarni sizga ko'rsatish uchun o'sha ma'lumotlarni shifrlashdan – yoki The Trade Desk UID2 kabi almashtirilgan identifikatordan foydalanishimiz mumkin. Biz buni odatda e-pochta manzilingiz, telefon raqamingiz yoki mobil reklama identifikatingizning psevdonimlashtirilgan versiyasini (sun'iy harflar yoki raqamlar bilan almashtirilgan) reklama joyini taklif qiluvchi platformaga (masalan, Facebook, YouTube, Instagram, TikTok va boshqalar) yuklash orqali amalga oshiramiz. Ochiq veb deb ataluvchi platforma orqali sizga reklamalarni ko'rsatish uchun ham biz o'sha ma'lumotlardan foydalanamiz. Bu sizning nytimes.com kabi saytlar, ilovalar yoki o'z reklama

resurslarining onlayn auksionlarida qatnashuvchi raqamli televideniye kabi boshqa joylarda bizdan tegishli reklamalarni ko'rishingiz mumkinligini anglatadi.

Kengaytirilgan mutanosiblik: Saytlarimizdan ayrimlari Ijtimoiy tarmoq platformalari tomonidan ularning reklama beruvchilariga taklif etiluvchi Kengaytirilgan mutanosiblik dasturlaridan foydalanadi (masalan, [Facebook'ning Kengaytirilgan mutanosiblik dasturi](#), [TikTok'ning Kengaytirilgan mtanosiblik dasturi](#) va hokazo.) Kengaytirilgan mutanosiblik dasturi orqali biz siz saytimizdagi shakl kataklari orqali kiritadigan shaxsiy ma'lumotlarni (masalan, ismingiz, elektron pochta manzilingiz yoki telefon raqamingiz, ya'ni nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus ma'lumotlar toifasi bo'lmagan ma'lumotlar) psevdonimlashtirilgan formatda ijtimoiy tarmoq platformasiga yuborishimiz mumkin yoki ijtimoiy tarmoq platformasi pikseli sizni brauzer cookie fayllaringiz yoki qurilma ID'ingiz bilan bog'lash uchun ma'lumotlarni avtomatik tarzda psevdonimlashtiradi va joylaydi. Biz bu ishni tegishli Ijtimoiy tarmoq platformalaridagi reklamamizni yaxshiroq yo'naltirish va uning samaradorligini o'lchash uchun amalga oshiramiz. Agar biz sizga berilgan Ijtimoiy tarmoq platformasi orqali reklama qilsak, siz uni ochganingizni, saytimizga kirganingizni va biror narsa xarid qilgan yoki qilmaganingizni bilamiz va shu orqali o'sha Ijtimoiy tarmoq platformasi reklamalarini sotib olishda davom etish yoki davom etmaslikni o'ylab ko'ramiz.

Google Analytics reklama xususiyatlari: Bizning ayrim saytlar ular reklama beruvchilarga taklif etadigan xizmat [Tahlildan foydalanib reklama qidirish uchun Google remarketing ro'yxatlari](#) ("RLSA") xizmatidan foydalanadi. Odamlar saytlarimizga tashrif buyurganda, Google Analytics ularning tashrifi haqida ma'lumotlar (va hech qanday nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus toifadagi ma'lumotlar emas) to'playdi. Agar tashrif buyuruvchi Google hisobi bilan kirgan bo'lsa, biz o'sha foydalanuvchiga u tashrif buyurgan P&G saytiga oid iboralar uchun Google qidiruvidan foydalanganda qiziqishga asoslangan reklama taqdim etishimiz mumkin. Masalan, agar siz bizning Head & Shoulders veb-saytimizga Google hisobingiz bilan kirsangiz, biz sizga Googleda "qazg'oqqa qarshi shampun" qidirganingizda Head & Shoulders reklamasini ko'rsatishimiz mumkin. Google Analytics tomonidan to'plangan saytlarimizga tashrif buyurishlaringiz haqidagi ma'lumotlardan foydalanish va ularni uzatish imkoniyatimiz [Google Analytics dan foydalanish shartlari](#) va [Google maxfiylik yuzasidan qoidalari](#) bilan cheklangan. Siz hamkorlarimizning saytlari yoki ilovalaridan foydalanganda Google qanday qilib ma'lumotlaringizdan foydalanishini tushunish uchun [bu yerga](#) kiring. Siz istalgan vaqtda [Google Analytics](#) xizmatidan voz kechishingiz mumkin.

▼ Biz foydalanashimiz mumkin bo'lgan boshqa texnologiyalar

Yaqinlikka asoslangan mayoqlar: Mayoqlar Siz o'z telefoningizga o'rnatadigan mobil ilovalarga yaqin masofalardan bir tomonlama signallar yuboradi va ular, masalan, ushbu do'konda qaysi mahsulotlarning arzonlashtirilgan narxlarda

sotilayotganligi haqida xabar qiladi. Mayoqlar ma'lumotlarni faqatgina yetarlicha yaqin masofadan va siz aniq bir mayoq bilan bog'liq bo'lgan mobil ilovada o'z roziligingizni berganingizdan keyin uzatadi. O'z navbatida ilovalar reklamani siz uchun maxsus tarzda moslashtira olishimiz uchun bizga siz joylashgan lokatsiya haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Masalan, siz supermarketdagi teri parvarishi tovarlari bo'limidagi mayoq yonida bo'lganingizda biz sizga 4 dollar chegirmali kupon yuborishimiz mumkin.

Piksellar: Bu veb-sahifaga ichki qurilgan kichkina ko'zga ko'rinmas obyektlardir. Ular yana "teglar", "veb-qo'ng'izchalar" yoki "pikselli gifkalar" nomlari bilan mashhur. Biz piksellardan cookie-fayllarni kompyuteringizga yetkazib berish, veb-saytimizdagi faollikni kuzatib borish, saytlarimizda ro'yxatdan o'tishni osonlashtirish hamda onlayn-marketing uchun foydalanishimiz mumkin. Biz sizning ularni ochishingizni va havolalariga bosishingizni aniqlash uchun piksellarni elektron pochta orqali reklama xabarlarimiz yoki axborot byulletenlarga kiritishimiz mumkin. Bu bizga sizning faol foydalanuvchi ekaningizni tushunishga yordam beradi (faolsizlik tufayli ma'lumotlaringiz o'chirilishining oldi olinadi). Bu bizga marketing harakatlarimiz unumdorligini o'lchash va kommunikatsiyamiz kontentini shaxsiylashtirishda foydalanadiganimiz tahliliy ma'lumotlarni olish va marketing qarorlarimizni yo'naltirishga yordam beradi (masalan, agar e-pochta ochgan bo'lsangiz, ammo undagi havolalarga bosmagan bo'lsangiz, biz Facebook tarmog'ida sizni boshqa tomonga yo'naltirishga qaror qilishimiz mumkin).

Mobil qurilma identifikatorlari va SDK'lar: Biz siz ilovalarimizdan foydalanganda ma'lumotlar to'plash mobil ilovalarda dastur kodidan foydalanamiz, ya'ni veb-saytlarimizda qanday cookie-fayllarni to'plashimiz. Bu ma'lumotlar, jumladan, mobil qurilmangiz identifikatorlari (IDFA iOS identifikatorlari va Android OT dagi reklama identifikatorlari) va ilovalarimizdan qanday foydalanishingiz haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Aniq geografik joylashuv: Siz tomoningizdan mobil ilovalardan foydalanilganda biz global joylashtirish tizimi (GPS) koordinatalari (uzunlik va kenglik) yordamida Sizning aniq joylashgan joyingiz haqidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Mobil telefoningiz yoki qurilmangizda siz joylashgan joyni biz tomonimizdan aniqlashga ruxsat berishingiz yoki rad qilishingizga imkon beruvchi qalqib chiquvchi bildirishnomani olasiz. Siz bizning har doim ham sizning qayerda joylashganligingiz (shahar, pochta indeksi yoki viloyat) to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun sizning ruxsatingizni so'rayvermasligimizni tushinishingiz kerak. Masalan, agar biz sizning Filippinning Malina shahrining qayeridadir ekanligingizni bilsak, biz buni joylashgan joyning aniq aniqlanishi, deb hisoblamaymiz.

Plaginlar: Veb-saytlarimizda boshqa kompaniyalarning, jumladan ijtimoiy tarmoqlarning plaginlari mavjud bo'lishi mumkin. Plaginga misol bo'lib Facebook tarmog'ining "Yoqtirish" tugmasi hisoblanadi. Ushbu plaginlar ma'lumotlar (masalan, siz tashrif buyurgan sahifaning URL manzili) to'plashi va ularni yaratgan kompaniyaga qaytarib yuborishi mumkin. Bu siz hattoki plaginga bosmagan hollaringizda ham yuz berishi mumkin. Garchi ular bizning saytlarimizda ko'rinsa ham bu plaginlar ularni yaratgan kompaniya maxfiylik qoidalari va shartlari bilan boshqariladi.

Loginlar: Veb-saytlarimiz boshqa kompaniyadagi qayd yozuvidan foydalangan holda, masalan, "Facebook orqali kirish" bilan avtorizatsiyadan o'tishga imkon beradi. Bunday qilganingizda bizda faqat o'zingiz rozilik bergan va boshqa kompaniya resursidagi (kirish uchun foydalaniluvchi) qayd yozuvingiz sozlamalaridan olish mumkin bo'lgan ma'lumotlarnigina ko'rishingiz mumkin bo'ladi.

Foydalanuvchi kontenti: P&G kompaniyasining ayrim veb-saytlarida va ayrim ilovalarida foydalanuvchilar tanlovlar, bloglar, videoroliklar kabilar uchun o'z kontentlarini joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuni yodda tutingki, siz yuboradigan yoki chop qiladigan har qanday ma'lumot ommaviy bo'lib qoladi. Biz siz saytlarimiz va ilovalarimizga yuboradigan kontentdan boshqalarning qanday foydalanishlari mumkinligi ustidan nazoratni amalga oshirmaymiz. Biz bunday foydalanishning maxfiylik qoidalari, qonunchilik yoki sizning shaxsiy maxfiyligingiz va xavfsizligingizni buzishi mumkinligi uchun javobgarlikni zimmamizga olmaymiz.

Havolalar: P&G saytlarida nazoratimiz ostidan tashqarida bo'lgan boshqa saytlarga havolalar mavjud bo'lishi mumkin. Bu saytlarning faoliyati ularning o'z maxfiylik qoidalari va shartlari bilan tartibga solinadi.

▼ Avtomatik qaror qabul qilish va profayling

Avtomatik qaror qabul qilish inson aralashuvisiz avtomatik vositalar yordamida qaror qabul qilishni nazarda tutadi. Pofayling bu shaxsiy ma'lumotlardan shaxsning ma'lum shaxsiy xususiyatlarini, masalan, o'sha odamning shaxsiy parametrlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari va hokazolarni tahlil qilish yoki prognoz qilish maqsadida baholash uchun shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishdan iborat avtomatik qayta ishlash shaklidir.

Ushbu Maxfiylik qoidalarini o'qiganingiz kabi, biz sizdan va boshqa tijorat manbalardan olingan shaxsiy ma'lumotlarning turli shakllarini to'playmiz. Bunday ma'lumotlar, jumladan, gohida ma'lum xatti-harakatlar va shaxsiy xususiyatlar orasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun algoritmlardan foydalanishni o'z ichiga olgan holda jamlanishi va tahlil qilinishi mumkin. Ayni xususiyatlarga ega yoki ayni xatti-harakatlarni amalga oshirgan P&G foydalanuvchilari mahsulotlarimizga shu kabi qiziqishga ega bo'lishi ehtimoli mavjud: bunday

tahlilga asosan, P&G iste'molchilari segmentlariga tegishli e-pochta, onlayn reklama va ijtimoiy tarmoq orqali tegishli takliflar yaratiladi va nishonga olinadi.

Bu jarayon bizga kommunikatsiyamizni sizning bildirilgan yoki nazarda tutilgan qiziqishlaringizga moslashtirishga imkon beradi. Ammo biz huquqiy ta'sir yaratishi yoki GDPR qoidalarining 22-moddasi (1) va (4) qismlariga asosan sizning huquq va erkinliklaringizga sezilarli ta'sir etishi mumkin bo'lgan hech qanday avtomatik qaror qabul qilish, jumladan profaylingni amalga oshirmaymiz va agar yanada kuchliroq profayling yoki kuzatish tartibini joriy etishni istasak, sizga doimo bu haqida xabar beramiz va qonun talab etgan hollarda buni amalga oshirishdan oldin roziligingizni olamiz yoki sizga bundan voz kechish imkoniyatini taqdim etamiz.

Biz shaxsiy ma'lumotlarni qanday oshkor qilamiz

–

✓ Sizning roziligingiz bilan

Sizning ruxsatingiz bilan ular biz sizni qiziqtirishi mumkin deb hisoblaydigan takliflari, reklama aksiyalari yoki mahsulotlari yoxud xizmatlari haqidagi e'lonlarini sizga yubora olishlari uchun sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni tanlangan hamkorlarimizga oshkor qilishimiz mumkin. Masalan, Pampers® kabi tagliklarimizni ishlab chiqaruvchi brendlarimizdan P&G elektron xatlarini oluvchi kishilar yana boshqa kompaniyalar ishlab chiqarayotgan bolalarning ovqatlanishi uchun aralashmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni olishga rozilik berishi mumkin.

✓ Onlayn platformalar va reklama texnologiyalari kompaniyalari

Veb-saytlarimiz va ilovalarimiz sizga mos reklama e'lonlari va takliflarni taqdim etishimizga yordam berish uchun o'z ichiga rozilik bildirish yoki voz kechishni oladigan tegishli qonuniy talablardan kelib chiqib kontakt ma'lumotlari, xos identifikatorlar, ko'zda tutilgan va olingan ma'lumotlar, onlayn va texnik ma'lumotlar va geolokatsiya ma'lumotlarini onlayn platformalar va reklama texnologiyalari kompaniyalariga taqdim etishlari mumkin. Shaxsiy ma'lumotlaringizni P&G'dan tashqaridagi sotuvchilarga pul kompensatsiyasi evaziga sotmaymiz. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyida AQSh davlat maxfiylik bildirgisining maxfiylik qoidalari qismi bilan tanishing.

✓ Ta'minotchilar

Biz shaxsiy ma'lumotlaringizni bizga yordam beradigan ta'minotchilarimizga (jumladan, biz ushbu hujjatda jamlab turib "xizmat provayderlari" yoki "ta'minotchilar" deb ataydigan tegishli qonunlarga asosan belgilangan **"xizmat provayderlari"** va **"ta'minotchilar"**) taqdim etamiz yoki oshkor qilamiz. Bunga saytlarimiz joylashtirish, saytlarda siz amalga oshirgan xaridlar uchun to'lovlarni qayta ishlash, sizga elektron xatlar va marketing xabarlari yuborish, biz

to'playotgan ma'lumotlarni tahlil qilish, bizga savdo atributlari bilan ko'maklashish (masalan, biz sizga reklamani ko'rsatganimizdan, so'ngra siz bizdan tovar xarid qilganingizdan xabar topish) va siz iltimos qilgan mahsulotlarni sizga jo'natish va xizmatlarni ko'rsatishda yordam berish kiradi. Biz shaxsiy ma'lumotlaringizni yana yuristlar, auditorlar, maslahatchilar, axborot texnologiyalari va xavfsizlik firmalari hamda bizga xizmat ko'rsatayotgan boshqalarga oshkor qilamiz yoki taqdim etamiz. Biz bu kompaniyalarga faqat biz talab etgan vazifalarni bajarishlari uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilamiz yoki taqdim etamiz yoki qonun ruxsat etgan holatlarda shaxsiy ma'lumotlardan xavfsizlik yoki firibgarlikni aniqlash kabi ayrim ichki maqsadlarda foydalanamiz. Biz xizmat provayderlarimizdan shaxsiy ma'lumotlaringizni tegishli ravishda qayta ishlash va himoyalashni talab qilamiz.

✓ Xaridlar uchun to'lovlar

Ayrim saytlarimiz orqali amalga oshiriladigan to'lovlar uchinchi tomon sotuvchisining onlayn to'lov tizimi yordamida bajariladi. Bu saytlar uchun P&G sizning xaridlar uchun taqdim etilgan kredit kartangiz ma'lumotlariga kirish huquqiga ega emas hamda ushbu uchinchi tomon tizimlari orqali qilgan xaridlaringizning bir qismi sifatida kredit kartangiz haqidagi ma'lumotlarni saqlamaydi yoki oshkor etmaydi. Siz bu saytlarda onlayn tizimimizga taqdim etadigan shaxsiy yoki moliyaviy ma'lumotlar uchinchi tomonning maxfiylik qoidalari va foydalanish shartlari bilan tartibga solinadi hamda biz sizga har qanday shaxsiy yoki moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishdan oldin o'sha qoidalar bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.

✓ Huquqiy va o'xshash sabablar

Agar shaxsiy ma'lumotlaringizni nazorat qiladigan brend yoki bizneslarimizdan biri yoki ayrim yoki barcha biznes aktivlar boshqa kompaniyaga sotilsa, shaxsiy ma'lumotlaringiz sotib olgan tomonga oshkor qilinadi. Biz yana ma'lumotingizni bizga o'z huquq va mol-mulkimizni himoya qilishga yordam beradigan kompaniyalarga, yoki qonun, yuridik jarayonlar, davlat organlari talab etganda o'zimizning va boshqalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga yetarlicha zarur bo'lgan darajada taqdim etamiz.

Biz to'playdigan shaxsiy ma'lumot turlari

–

Biz dunyoning ko'plab mamlakatlarida ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarayotgan va ko'pgina bizneslari mavjud yirik kompaniya sifatida iste'molchilarimizga eng yaxshi xizmat ko'rsatish maqsadida quyidagi turdagi shaxsiy ma'lumotlarni to'playmiz.

Shuni yodda tutingki, bu biz to'playdigan har xil turdagi shaxsiy ma'lumotlarning to'liq ro'yxati va biz buni faqat qonun talablariga ko'ra va qonuniy asosga ega bo'lganda

(masalan, sizning roziligingiz bo'lganda yoki ushbu ma'lumot bizga siz tomon bo'lgan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lganda yoki qonuniy manfaatlarimiz asosida yoki qonuniy majburiyatni bajarish uchun qayta ishlash zarur bo'lganda) to'playmiz. Bunday ma'lumotlarni to'plash turlarining hammasi ham sizga taalluqli bo'lmaydi. Agar siz bizda haqiqatda siz haqingizdagi qanday ma'lumotlar mavjudligini bilmoqchi bo'lsangiz, [bu yerda](#) biz bilan bog'laning. *(Eslatma: yuqori chap burchakdagi tugmani bosish orqali o'zingizning to'g'ri yashash manzilini/mamlakatini tanlaganingizga ishonch hosil qiling).*

✓ Biz odatda qanday ma'lumotlarni to'plashimiz haqida

Kontakt ma'lumotlari: Ushbu toifadagi ma'lumotlar ismlar (jumladan, taxalluslar va oldingi ismlar), mansabi, pochta manzili, e-pochta manzili, telefon raqami/mobil telefon raqami va tegishli insonlarga (hisob qaydnomangizning vakolatli foydalanuvchilariga) oid kontakt ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Umumiy demografiya va psixografiya: Ushbu toifadagi ma'lumotlar qismi yosh diapazoni, er-xotinlik va oilaviy ahvol, irqi va etnik kelib chiqishi (masalan, soch parvarishi yoki teri parvarishi xaridlari yoki parametrlariga oid siz taqdim etadigan ma'lumotlar bo'yicha) sotib olishda afzal biladigan sohalar, tillarni bilish, sodiqlik va mukofotlar dasturlari ma'lumotlari, oila demografiyasiga oid ma'lumotlar, ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma'lumotlar, ta'lim va professional faoliyat haqidagi ma'lumot, hobbilar va qiziqishlar hamda uchinchi tomonlardan olingan moyillik ko'rsatkichlarini (xarid qilish ehtimoli, hayotiy voqeani qanday boshdan kechirgani kabilarni) o'z ichiga oladi.

Tranzaksiya va tijorat ma'lumotlari: Ushbu toifadagi ma'lumotlar unsurlari mijozning hisob raqami haqidagi ma'lumotni, malakasi haqidagi ma'lumotlarni, xaridlari tarixi va tegishli qaydlarni (qaytarilgan tovarlar, mahsulotlarga xizmat ko'rsatilgani to'g'risidagi yozuvlar, kreditlar kabilar), mahsulotlarni yuklab olish, xarid qilish, dasturiy ilovalar to'g'risidagi yozuvlarni, iste'molchining kimligini aniqlash uchun to'plangan nobiometrik ma'lumotlarni (parollar, hisob raqami xavfsizligiga oid savollar) va mijoz xizmati yozuvlarini o'z ichiga oladi.

Takrorlanmas ID va hisob qaydnomasi tafsilotlari: Ushbu toifadagi ma'lumotlar unsurlari takrorlanmas ID raqamini (masalan, mijoz raqami, hisob raqami, obuna raqami, Mukofotlar dasturi raqami), tizim identifikatorlarini (jumladan, foydalanuvchi ismi yoki onlayn identifikatsiya ma'lumotlari), qurilma haqda reklama beruvchilarni, reklama ID'lari va IP-manzillarni o'z ichiga oladi.

Onlayn va texnik ma'lumotlar: Bu internet yoki boshqa elektron tarmoq faoliyati haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu turkumdagi ma'lumot qismlari o'z ichiga IP-manzillari, MAC manzillari, SSID'lar yoki boshqa qurilmalar identifikatorlari yoxud doimiy identifikatorlar, internet foydalanuvchisi IDlari, shifrlangan parollar, qurilma tavsifnomasi (masalan, brauzer haqida ma'lumot), veb-server jurnallari, dasturiy ilova jurnallari, brauzer orqali saytlarga kirish ma'lumotlari, ko'rish ma'lumotlari (TV, internetda oqimli ko'rish), veb-sayt va

ilovalardan foydalanish, birinchi tomon cookie fayllari, uchinchi tomon cookie-fayllari, veb-mayoqlar, toza grafikaga oid ma'lumotlarni almashish ma'lumotlari va piksel teglarini oladi. Bunga shuningdek, qurilmangizning funksionalligi (brauzer, operatsion tizim, apparat, mobil tarmoq ma'lumotlari) kabi ma'lumotlar kiradi; sizni veb-saytimizga yo'naltirgan URL; veb-saytimiz yoki siz tashrif buyuradigan ilovalarimizdagi hududlar va u yerdagi harakatlaringiz (jumladan, elektron pochta xabarlarini ochasizmi yoki havolalarni bosasizmi); qurilmangizning xususiyatlari; va qurilma ma'lumotlari va kunning vaqti.

Xulosa ma'lumotlari: Bunga ushbu bo'limda keltirilgan boshqa axborotdan olingan shaxsiy ma'lumotlar kiradi. Biz siz haqingizda bilganimiz barcha shaxsiy ma'lumotlarni tahlil qilish orqali xulosa qilingan va olingan ma'lumotlar qismlarini yaratamiz. Ushbu toifadagi ma'lumot qismlari ichki tahlil dasturlari yordamida olingan moyilliklar, atributlar va/yoki baholarni o'z ichiga oladi.

✓ Biz ba'zan nimalarni to'plashimiz haqida

Biz ba'zan nimalarni to'plashimiz haqida – Ba'zan biz nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus turdagi ma'lumotlarni **to'playmiz** va biz buni faqat qonun talablariga ko'ra va buning uchun qonuniy asosga ega bo'lganimizda (masalan, sizning roziligingiz bo'lganda yoki ushbu ma'lumot bizga siz tomon bo'lgan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lganda yoki qonuniy manfaatlarimiz asosida yoki qonuniy majburiyatni bajarish uchun qayta ishlash zarur bo'lganda) amalga oshiramiz.

Aniq gejoylashuv: Ushbu toifadagi ma'lumot qismlari aniq joylashuvni (masalan, geografik kenglik/geografik uzunlik) o'z ichiga oladi.

Salomatlikka oid ma'lumotlar: Qanday to'planishiga asoslangan ma'lumotlar unsurlariga quyidagilar kiradi:

- Iste'molchi dasturlaridan to'plangan ma'lumotlar (masalan, brend saytlarimizda ro'yxatdan o'tgan vaqtingiz, mukofot dasturlarimizdagi ishtirokingiz yoki mahsulotlarimizni xarid qilishingiz)
- Qazg'oq va soch to'kilishi, taglik tufayli yuzaga kelgan toshmalar kabi umumiy salomatlik va kasallik belgilari haqidagi umumiy ma'lumotlar.
- Homiladorlikka oid, masalan kutilgan sana kabi ma'lumotlar
- Siz rozilik bergan Iste'molchilar qiziqishlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar
- Jismoniy yoki ruhiy salomatlik, kasallik holati, kasallik tarixi yoki tibbiy davolanish yoki diagnostika, qabul qilingan dori-darmonlarga oid va tegishli ma'lumotlar

- Siz biz bilan shikoyat qilish yoki mahsulotlarimizdan foydalanish vaqtida yuz bergan noxush holat haqida xabar berish uchun bog‘langan vaqtingizdagi ma'lumot

Moliyaviy hisob ma'lumotlari: Ushbu toifadagi ma'lumotlar elementlari bank hisobi raqami, tafsilotlar va to'lov kartasi haqidagi ma'lumot (masalan, bevosita brendning o'zidan xaridlar qilganingizda yoki brenddan kredit olganingizda).

Davlat chiqargan ID'lar: Ushbu toifadagi ma'lumotlar unsurlari davlat ID'lari va soliq ID'si (masalan, bizdan ushbu ma'lumotlarni to'plash talab etiladigan yurisdiksiyalardagi tanlov g'oliblari uchun).

Audiovizual ma'lumotlar: Ushbu toifadagi ma'lumotlar qismi fotosuratlar, video tasvirlar, nazorat kameralari yozuvlari, qo'ng'iroq-markazlari yozuvlari va telefon qo'ng'iroqlari nazorati yozuvlari va ovozli pochta xabarlarini (masalan, siz obyektlarimizga kelganingiz yoki bizga qo'ng'iroq qilayotganingizni o'rganish uchun) o'z ichiga oladi.

Aqlli qurilmalar va sensor ma'lumotlar: Ushbu toifadagi ma'lumotlar qismi aqlli qurilmalar yozuvlari, IOT mahsulotlarini (masalan, Oral B'ning dasturiy ilovalarga ulangan tish cho'tkasi) o'z ichiga oladi.

Bolalar haqida ma'lumotlar: Ushbu toifadagi ma'lumotlar elementlari farzandlaringiz soni, ularning taglik o'lchamlari, jinsi va yoshini o'z ichiga olishi mumkin.

Biometrik ma'lumotlar: Ushbu toifadagi ma'lumotlar qismi yuzni tanish ma'lumotlari va taqqoslash uchun ishlatiladigan shablon singari (masalan, sog'liqni saqlash tadqiqotlari uchun) biometrik identifikatingizning matematik modelini o'z ichiga oladi.

Qonuniy asos va qayta ishlash maqsadida saqlash

–

Odatda sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni biz ular to'planishidan ko'zlangan qayta ishlash maqsadi uchun yoki qonun talablariga ko'ra zarur bo'lgan muddat davomida saqlaymiz. So'rovlaringizni qanoatlantirish, jumladan, sizni marketing xabarlari tarqatmasiga qo'shmaslik hamda yuridik yoki boshqa majburiyatlarni bajarish uchun shaxsiy ma'lumotlaringizni ko'rsatilgan saqlash muddatidan ko'proq muddat saqlab turishimizga to'g'ri kelishi mumkin. Ushbu bo'limda qayta ishlash maqsadlari nima uchun qonunga mos kelishi (GDPR kabi ayrim AQSH Maxfiylik qonunlariga asoslangan huquqiy asos) va agar yuqorida qayd etilgan istisnalar bo'lmasa, (saqlash muddati) biz bu maqsadda foydalanadigan shaxsiy ma'lumotlarni qancha vaqt saqlashimizni qamrab oladi. AQSHning ba'zi Maxfiylik qonunlari (quyida tavsiflangan) bizdan, har bir toifa asosida, shaxsiy ma'lumotlarning har bir shu kabi toifaga tegishli saqlash

muddatini oshkor qilishimizni talab qiladi. Bu ma'lumot uchun bizning [AQSH Davlat maxfiylik bildirgisida](#) keltirilgan jadval bilan tanishing.

✓ Mahsulotlar/Xizmatlar

Huquqiy asos:

- E-tijorat sotuvlarini amalga oshirish uchun shartnomani bajarish
- Namuna olish dasturlari uchun rozilik
- Kupon chiqarish va kuponlarni bekor qilish uchun qonuniy manfaat yoki rozilik

Saqlash muddati: Sizga talab etilgan mahsulotlar yoki xizmatlarni taqdim etish ortiq kerak bo'lmaganda va qonun yoki shartnomaga asosan ularni saqlashni davom ettirish talab etilmaganda.

✓ Mijozlar boshqaruvi

Huquqiy asos:

Quyidagilarga rozilik:

- sizga (shaxsiylashtirilgan) marketing e-pochta va matnli xabarlarini yuborish
- mahsulotlarimizga oid baholaringiz va sharhlaringizni qayta ishlash
- siz yanada moslashtirilgan reklama olish uchun yuklagan xarid kvitansiyalaridagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish
- salbiy hodisalar haqida xabar berish
- ma'lum nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus turdagi ma'lumotlarni qayta ishlash
- ayrim mamlakatlardagi veb-saytlarimiz va mobil ilovalarimizdagi muhim bo'lmagan kuzatish texnologiyalari

Quyidagi uchun qonuniy manfaat:

- iste'molchi shikoyatlarini ko'rib chiqish va shikoyatlarni tekshirish (mamlakat qonunlariga muvofiq rozilik talab qilinmasa).
- pochta marketingi (mamlakat qonunlariga ko'ra rozilik talab etilmasa)
- talab etilgan mahsulotlarni sizga yetkazish
- shaxsiy ma'lumotlaringizni turli marketing tizimlarida qayta ishlash

Holatdan kelib chiqib, biz quyidagilar uchun o'z qonuniy huquqimiz yoki rozilikka tayanishimiz mumkin:

- ro'yxatdan o'tish ma'lumotlaringizni (xizmatlarimiz bilan o'zaro aloqada bo'lganingizda bizga oshkor qiladigan ma'lumotlaringiz, jumladan, brend imtiyozlari, kesilgan kuponlar va boshqalar) atributlar, qiziqishlar yoki tijoratda mavjud manbalardan yoki boshqa uchinchi tomonlardan olingan demografik ma'lumotlar bilan boyitish va birlashtirish
- sizga va onlayn kanallar bo'ylab o'xshash profilga ega shaxslarga moslashtirilgan reklamalarni yetkazib berish.

Shartnoma ijrosi:

- tanlovlar, naqd pulni qaytarish va sodiqlik mukofotlariga a'zolik (mamlakat qonunlariga ko'ra rozilik talab qilinmasa), kafolat bo'yicha da'volarni boshqarish uchun

Saqlash muddati: Siz shaxsiy ma'lumotlaringizni o'chirishni so'raguningizcha yoki roziligingizni qaytarib olguningizcha. Aks holda, biz shaxsiy ma'lumotlaringiz ularni qayta ishlash maqsadida ortiq kerak bo'lmaganda yoki qonun yoki shartnomaga asosan yana saqlash talab etilmasa, faolsizlikdan keyin ko'pi bilan 50 oydan keyin o'chiramiz. Biz faolsizlikni foydalanuvchining dasturlarimiz va aloqa vositalarimiz bilan kontakti yo'qligini namoyish etadigan bir nechta ichki mezonlar orqali aniqlaymiz. Masalan, agar siz tizimga kirmasangiz yoki elektron xatlarimizni ochmasangiz yoki tugmalarga bosmasangiz, biz sizni "faol emas" deb hisoblaymiz va ma'lumotlaringizni ko'pi bilan 50 oydan keyin o'chiramiz, lekin mahalliy qonun talablariga qarab ayrim mamlakatlarda buni tezroq amalga oshiramiz. So'rovlaringizni qanoatlantirish, jumladan sizni marketing xabarlarini tarqatmasiga qo'shmaslik hamda boshqa yuridik majburiyatlarni bajarish uchun shaxsiy ma'lumotlaringizdan ayrimlarini saqlab turishimizga to'g'ri kelishi mumkin. Biz, shuningdek, baholash va sharhlarda foydalanilgan ba'zi shaxsiy ma'lumotlarni sharh foydalanilgan muddatgacha yoki mahsulot sotuvi to'xtatilgunga qadar saqlashimiz mumkin.

✓ Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar

Huquqiy asos:

Quyidagi uchun qonuniy manfaat:

- iste'molchilar va biznes so'rovlarini boshqarish

Quyidagilarga rozilik:

- ayrim salbiy holatlarda to'planishi mumkin bo'lgan nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus toifadagi ma'lumotlar

Shartnoma ijrosi:

- hisoblaringiz, xaridlaringiz, mukofotlar shartlari va hokazo haqida tranzaksiya/dastur ma'lumotlarini yuborish uchun
- professional inflyuenserlar, biznes kontaktlar, elchilar va hokazolar bilan aloqalar.

Saqlash muddati: Siz shaxsiy ma'lumotlaringizni o'chirishni so'raguningizcha yoki roziligingizni qaytarib olguningizcha. Aks holda, biz shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlash maqsadida ortiq kerak bo'lmaganda yoki qonun yoki shartnomaga asosan yana saqlash talab etilmasa o'chiramiz.

✓ To'lovga oid/Moliyaviy

Huquqiy asos: Shartnoma ijrosi

Saqlash muddati: Qonun yoki shartnoma tomonidan ko'proq saqlash talab etilmasa, buyurtmani bajarish uchun zarur bo'lgan muddat davomida. Biz ma'lumotlarni odatda keshbek takliflari uchun 24 oy va kafolat majburiyatlarini bajarish uchun 10 yil davomida saqlaymiz.

✓ Reklama taqdim etish

Huquqiy asos:

- Kuzatuv texnologiyalarini o'z veb-saytlarimizda yoki o'z mobil ilovalarimizda joylashtirganimizda, biz qonuniy talablarga amal qilamiz va mamlakat qonunlari talab qilganidek, rozilik yoki qonuniy manfaatlarga tayanamiz. Hattoki kuzatish texnologiyalarini uchinchi tomonga tegishli biror narsa/joyga joylashtirganimizda yoki uchinchi tomon sotuvchilardan ma'lumotlarni sotib olganimizda ham, ulardan qonuniy talablarga amal qilishni (jumladan, kuzatish texnologiyamizni qo'llash yoki shaxsiy ma'lumotlaringizni biz bilan baham ko'rishdan oldin sizning roziligingizni olish) talab qilamiz.
- Turli media kanallarida, jumladan, ijtimoiy media platformalarida, maxsus auditoriyalar va tashqi ko'rinishga o'xshash auditoriyalar orqali sizga tegishli reklamalarni taqdim etish uchun elektron pochta manzilingiz, telefon raqamingiz yoki mobil reklama Identifikatingizni qayta ishlash uchun qonun talabiga bog'liq ravishda qonuniy manfaat yoki rozilik.

Saqlash muddati: Qayta ishlash maqsadida ortiq talab etilmasa (ya'ni, reklama kompaniyasi tugaganda) yoki ertaroq voz kechmasangiz, eng ko'pi bilan 110 oy ichida.

✓ Reklamani boshqarish

Huquqiy asos: Qonuniy manfaat

Saqlash muddati: Qayta ishlash maqsadida ortiq talab etilmasa. Veb-saytlarimiz yoki mobil ilovalarimizda kuzatish texnologiyalaridan foydalanish orqali shaxsiy ma'lumot to'plash uchun, agar oldinroq bekor qilmasangiz, 12 oy ichida.

✓ **Sifat va xavfsizlik**

Huquqiy asos: Qonuniy manfaat

Saqlash muddati: Qonun yoki shartnoma tomonidan ko'proq saqlash talab etilmasa, ortiq qayta ishlash maqsadlarida talab etilmagandan keyin. Veb-saytlarimiz yoki mobil ilovalarimizda turli kuzatish texnologiyalaridan foydalanish orqali shaxsiy ma'lumot to'plash uchun, agar ertaroq voz kechmasangiz, ko'pi bilan 12 oy ichida.

✓ **Xavfsizlik**

Huquqiy asos: Qonuniy manfaat

Saqlash muddati: Qonun yoki shartnoma tomonidan ko'proq saqlash talab etilmasa, ortiq qayta ishlash maqsadlarida talab etilmagandan keyin. Veb-saytlarimiz yoki mobil ilovalarimizda kuzatish texnologiyalaridan foydalanish orqali shaxsiy ma'lumot to'plash uchun, agar oldinroq bekor qilmasangiz, 12 oy ichida.

✓ **Hisob-kitob yuritish va audit**

Huquqiy asos:

- Tranzaksiya ma'lumotlari uchun shartnoma ijrosi
- Ayrim hisob-kitob yuritish faoliyati uchun qonuniy majburiyat

Saqlash muddati: Qonun tomonidan ko'proq saqlash talab etilmasa, ortiq qayta ishlash maqsadlarida talab etilmaganidan keyin.

✓ **Huquqiy/Muvofiqlik**

Huquqiy asos: Huquqiy majburiyat

Saqlash muddati: Qonun tomonidan ko'proq saqlash talab etilmasa, ortiq qayta ishlash maqsadlarida talab etilmaganidan keyin.

✓ **Tadqiqotlar va ishlanmalar ("R&D")**

Saqlash muddati: Biz klinik tadqiqotlar natijasida to'plangan biometrik bo'lmagan shaxsiy ma'lumotlarni to'plangan maqsad uchun zarur bo'lgunga qadar yoki to'plash maqsadi amalga oshirilgandan keyin 30 yil o'tgach va/yoki qaysi biri keyin kelishiga qarab mahalliy qonun, qoida yoki yaxshi klinik tadqiqot amaliyoti tomonidan saqlanishi talab qilinadigan vaqtgacha saqlaymiz. Klinik bo'lmagan tadqiqotlar uchun biz biometrik bo'lmagan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish vaqtdan keyin yoki to'plash maqsadi amalga oshirilgandan keyin, qaysi biri keyinroq bo'lsa, eng ko'pi bilan 5 yil davomida saqlaymiz. Biometrik ma'lumotlar uchun biz ularni agar qonun yoki me'yoriy hujjatlarga muvofiqlik maqsadlarida yoki qonuniy manfaatlarimizni amalga oshirish yoki himoya qilish uchun uni uzoqroq saqlashimiz talab qilinmasa, to'plash yoki qayta ishlash maqsadini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqt davomida saqlaymiz. Biz sizning rozilik haqida imzolagan hujjatlaringizni uzoqroq saqlaymiz.

Bolalarning shaxsiy ma'lumotlari

Biz bolalar ma'lumotlarini faqat cheklangan holatlarda va har doim amaldagi ma'lumotlarni himoya qilish qonunlariga muvofiq to'playmiz. Biz maqsadli reklama uchun bolalardan olingan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanmaymiz.

Shaxsiy ma'lumotlaringizni qanday himoya qilamiz

Shaxsiy ma'lumotlaringiz daxlsizligi muhimdir. Shu sababli biz shaxsiy ma'lumotlaringizni yo'qotish, noto'g'ri ishlatish yoki o'zgartirishdan himoya qilish uchun choralar ko'rish orqali hurmat qilamiz.

Bizda shaxsiy ma'lumotlarni tegishli ravishda boshqarish, jumladan, to'plash, foydalanish, oshkor etish, saqlash va yo'q qilishga oid jarayonlar va nazorat vositalari mavjud. Biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni hurmat qilamiz va ularni yo'qotishlar, ruxsatsiz foydalanishlar yoki buzishlardan himoya qilish uchun choralar ko'ramiz. Zarur bo'lgan hollarda bu choralar xavfsizlik devorlari, buzib kirishlarni aniqlash va ularning oldini olish tizimlari, o'ziga xos va murakkab parollar hamda shifrlash kabi texnik himoya vositalarni o'z ichiga olishi mumkin. Biz ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha xodimlarni tayyorlash, ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan hodisalar va xatarlarni tanib olish, xodimlarning sizning shaxsiy ma'lumotlaringizga kirishini cheklab qo'yish hamda foydalanilmayotgan hujjatlar xavfsizligini tegishli darajada ta'minlashni o'z ichiga oluvchi jismoniy xavfsizlikni ta'minlash kabi tashkiliy va jismoniy choralarni ham ko'ramiz.

Xalqaro uzatmalar

P&G Amerika Qo'shma Shtatlarida bosh ofisga ega, Singapur, Dubay, Jeneva va Panamada mintaqaviy ofislarga ega hamda Kosta-Rika yoki Filippin kabi boshqa mamlakatlarda P&G xizmat markazlariga ega. Ko'pmillatli kompaniya sifatida P&G o'z tashkilotlari guruhi ichida yoki ma'lumotlaringizni xizmat provayderlari yoki tanlangan hamkorlarga ulashishda ma'lumotlar uzatishni amalga oshiradi, ular ma'lumotlaringizni to'plangan mamlakatdan boshqa mamlakatda, jumladan Amerika Qo'shma Shtatlarida saqlashi, qayta ishlashi yoki ularga kirishi mumkin. Masalan, Kvebekda to'plangan shaxsiy ma'lumotlar tegishli himoya va xavfsizlik choralarini ko'rgan holda Kanadadan tashqariga o'tkazilishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi fuqarolari yuzasidan (masalan, Shveytsariya, Buyuk Britaniya va Serbiya fuqarolari ham) bu ularning ma'lumotlari Yevropa iqtisodiy hududi (EEA) dan tashqarida yoki Buyuk Britaniya (masalan, Yevropa Ittifoqi mintaqasi uchun bizning ba'zi to'lovlarni amalga oshirish, qaytarish va aloqa markazi xizmatlari boshqariladigan joy) yoki Shveytsariya (Yevropa Ittifoqi shtab-kvartiramiz joylashgan) kabi Yevropa Komissiyasi tomonidan adekvat ma'lumotlar himoyasi ta'minlanadigan mamlakatlarda yoki Yevropa Komissiyasi tomonidan ma'lumotlarni himoya qilish darajasi yuqori emas deb hisoblangan boshqa mamlakatlarda qayta ishlanishi mumkinligini anglatadi. Bunday ma'lumotlarni uzatish uchun, ma'lumotlar harakatlanganda maxsus himoya choralarini ko'rish talab etilgani bois, biz Yevropa Ittifoqi standart shartnoma bandlaridan, standartlashtirilgan va oldindan tasdiqlangan namunaviy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalaridan foydalanamiz. Siz tasdiqlangan Yevropa Ittifoqi standart shartnoma bandlarining eng oxirgi versiyasini, jumladan, turli o'tkazish modullarini [bu yerda](#) topishingiz mumkin. Bizning o'tkazish bo'yicha kelishuvlarimiz yana o'z ichiga Buyuk Britaniya, Shveytsariya va Serbiya ma'lumotlarni himoya qilish qonunlariga asoslangan standart ma'lumotlar himoyasi bandlarini oladi. Agar sizda ma'lumotlarni o'tkazish bo'yicha kelishuvlarimizga oid savollaringiz bo'lsa [biz bilan bog'laning](#).

Agar siz Yevropa Iqtisodiy Hududi (EEA), Buyuk Britaniya (va Gibraltar) yoki Shveytsariyada joylashgan bo'lsangiz, shuni yodda tutingki, P&G kompaniyasi EEA, Buyuk Britaniya (va Gibraltar) yoki Shveytsariyadan shaxsiy ma'lumotlarni AQSh'ga o'tkazishga nisbatan mos tarzda AQSh Savdo Departamenti va Yevropa Komissiyasi va Axborot komissari hamda Shveytsariya Federal Ma'lumotlarni himoya qilish komissari tomonidan ishlab chiqilgan Yel-AQSh Ma'lumotlar maxfiyligi platformasi (Yel-AQSh DPF), Buyuk Britaniyaning Yel-AQSh DPF ga kengaytmasi va Shveytsariya-AQSh Ma'lumotlar maxfiyligi platformasi (Shveytsariya-AQSh DPF) [birgalikda "Ma'lumotlar maxfiyligi platformasi"] ostida sertifikatlanadi, *Ma'lumotlar maxfiyligi platformamizni ko'rish uchun [bu yerga bosing](#); Mijoz maxfiyligi qoidalari.*

EEA va Buyuk Britaniyaniki bo'lmagan ma'lumotlar uchun biz ma'lumotlarni bunday uzatishni sizning roziligingiz yoki mahalliy qonunchilik talab qilgan hollarda shartnomalarimizga asoslangan holda amalga oshiramiz.

✓ AQSH Davlat maxfiylikni oshkor qilish va iste'molchilar huquqlari ("AQSH Davlat maxfiylik bildirgisi")

Ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisi AQSH maxfiylik qonunlari, ayniqsa Kaliforniya iste'molchilar maxfiyligi akti, jumladan Kaliforniya maxfiylik huquqlari akti ("**CCPA**"), Virginiya iste'molchilar ma'lumotlari maxfiyligi akti ("**VCDPA**"), Kolorado maxfiylik akti, Yuta iste'molchilar maxfiyligi akti, Konnektikut shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini yashirish va onlayn monitoring akti hamda har qanday boshqa AQSH maxfiylik qonunlarida belgilab qo'yilganidek, ularning har biri o'zgarganda kuchga kirganda va ulardagi har qanday qoidalar ichida (birgalikda "**AQSH maxfiylik qonunlari**") deb yuritiladi) "Iste'molchilarga" nisbatan qo'llanadi. Ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisi ushbu Maxfiylik qoidalariga qo'shimcha sanaladi. Har qanday boshqa P&G qoidalar, bildirishnomasi yoki bildirgisi hamda ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisi orasida nizo kelib chiqsa, Iste'molchilar va ularning tegishli AQSH maxfiylik qonunlariga asosan huquqlariga nisbatan ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisi talablari ustivorlik qiladi.

Ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisi sizga ushbu Maxfiylik siyosatining "oxirgi yangilangan" sanasidan keyingi oxirgi 12 oy ichidagi shaxsiy ma'lumotlarga oid tartib-qoidalarimiz borasida bildirgi berish uchun mo'ljallangan. Ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisi kamida har yili yangilanadi. ***Ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisi yana biz onlayn va oflayn to'playdigan shaxsiy ma'lumotlar bildirgisi*** (ayrim AQSH maxfiylik qonunlarida "shaxsiy ma'lumotlar" deb ham nomlanadi) bo'lgan "to'plash bildirgisini" sizga taqdim etish kabi joriy ma'lumotlar bilan ishlash tartibimizga hamda AQSH maxfiylik qonunlari talab etgani sababli shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlariga nisbatan ham qo'llanadi. Ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisida tavsiflanmagan har qanday yangi yoki sezilarli darajada farqli qayta ishlash harakati uchun biz sizni AQSH maxfiylik qonunlari talabiga binoan xabardor qilamiz, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni to'plash vaqtida yoki ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisini yangilash orqali sizni xabardor qilamiz. Biz istalgan vaqtda o'z xohishimizga qarab ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisini o'zgartirish huquqini o'zimizda saqlab qolamiz. Biz bilan ushbu AQSH maxfiylik bildirgisi bo'yicha bog'lanish uchun quyidagi [Biz bilan bog'laning](#) bo'limiga qarang.

Odatda biz shaxsiy ma'lumotlaringizni biznes maqsadlarimiz va savdo maqsadlarimiz uchun to'playmiz, saqlaymiz, foydalanamiz va oshkor qilamiz, ular ushbu Maxfiylik qoidasining qolgan qismida, jumladan "[Biz shaxsiy ma'lumotlarni qanday to'playmiz va ulardan qanday foydalanamiz](#)" va "[Biz shaxsiy ma'lumotlarni qanday oshkor qilamiz](#)" (birgalikda "**Qayta ishlash maqsadlari**") bo'limida tasvirlangan. Biz shaxsiy ma'lumotlarni to'playdigan manbalar yuqoridagi "[Biz shaxsiy ma'lumotlarni qanday to'playmiz va ulardan qanday foydalanamiz](#)" bo'limida keltirilgan. Quyidagi jadvalda keltirilganiday, Qayta ishlash maqsadlarining ayrimlari "Sotish", "Ulashish" va/yoki "Maqsadli reklamani" nazarda tutadi. Sotish, ulashish va maqsadli reklamani tafsilotlari bilan tanishish uchun quyidagi "[Sotmang/ulashmang/maqsad qilmang](#)" bo'limiga murojaat qiling. Jadvalda ko'rsatilgan Qayta ishlash maqsadlari toifa tavsiflari bo'lib, ular o'qish va tushunishni osonlashtiradi. Har bir Qayta ishlash

maqsadining to'liq tavsifi bilan tanishish uchun Maxfiylik qoidalarining [“Biz shaxsiy ma'lumotlaringizdan foydalanadigan umumiy usullar”](#) bo'limiga murojaat qiling.

Quyidagi jadvalning birinchi ustunida (chapdan boshlanadi) biz to'playdigan shaxsiy ma'lumotlar toifalarini tasvirlangan. Ikkinchi ustunda tegishli toifalardagi ma'lumotlar turlarining misollari keltirilgan, ularga ayrim holatlarda yuqoridagi [“Biz to'playdigan shaxsiy ma'lumotlar turlari”](#) bo'limidagi shaxsiy ma'lumot turlari/toifalari kiradi.

Uchinchi ustunda biznes maqsadlarida oshkor etishning hamda ayrim AQSH maxfiylik qonunlariga ko'ra sotuv yoki ulashish deb hisoblanadigan oshkor etishlarning bir qismi sifatida bunday shaxsiy ma'lumotlarni (jumladan, nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus toifadagi ma'lumotlar) oluvchilar toifalari keltirilgan.

Misollarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning barchasi ham uchinchi shaxslarga “sotilmaydi”. Masalan, diagrammaning “Identifikatorlar va kontakt ma'lumotlari” bo'limida biz sizga xizmatlar ko'rsatish uchun “moliyaviy hisob ma'lumotlari” yoki “davlat tomonidan berilgan identifikatorlar” ma'lumotlarini to'plashimiz mumkin, lekin biz uni uchinchi shaxslarga “sotmaymiz”. Biroq, biz uchinchi shaxslarga "noyob IDlar" va hisob ma'lumotlarini sotishimiz mumkin. Agar ma'lumotlaringizdan birortasi “sotilgan” yoki “ulashilgan” bo'lsa, u amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. To'rtinchi ustunda shaxsiy ma'lumotlarning har bir toifasiga nisbatan qo'llanadigan Qayta ishlash maqsadlari keltirilgan. Beshinchi ustunda biz shaxsiy ma'lumotlarning toifalariga asoslangan tegishli saqlash muddatlarini ko'rsatamiz.

Shaxsiy ma'lumotlar toifasi	Toifadagi shaxsiy ma'lumotlar turlariga misollar	Qabul qiluvchilar toifalari	Qayta ishlash maqsadlari	Saqlash muddati
1. Identifikatorlar va kontakt ma'lumotlari	Kontakt ma'lumotlari, noyob ID va hisob tafsilotlari, onlayn va texnik axborot, moliyaviy hisob axboroti, davlat chiqargan ID hujjatlar	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Dasturiy ta'minot va boshqa biznes ta'minotchilar (“Biznes ta'minotchilar”) • Marketing ta'minotchilari • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: Uchinchi tomon raqamli biznes korxonalari va chakana savdo hamkorlari	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qayta ishlash maqsad(lar)ida ortiq kerak bo'lmaganida yoki qonun yoki shartnomaga asosan yana saqlash talab etilmasa, faolsizlikdan keyin eng ko'pi bilan 50 oydan keyin. Voz kechgan iste'molchilar bilan aloqani tugatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar keyinchalik saqlanishi mumkin.

2. Shaxsiy qaydlar	Kontakt ma'lumotlari, noyob ID va hisob tafsilotlari, moliyaviy hisob axboroti, davlat chiqargan ID hujjatlar	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Marketing ta'minotchilari • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: Uchinchi tomon raqamli biznes korxonalari	• Mahsulotlar / Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish / Kommunikatsiyalar • To'lov / Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik / Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qayta ishlash maqsad(lar)ida ortiq kerak bo'lmaganida yoki qonun yoki shartnomaga asosan yana saqlash talab etilmasa, faolsizlikdan keyin ko'pi bilan 50 oydan keyin. Voz kechgan iste'molchilar bilan aloqani tugatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar keyinchalik saqlanishi mumkin.
3. Shaxsiy xususiyatlar yoki xususiyatlar	Umumiy demografika va psixografika, bolalar haqida ma'lumotlar, xulosa ma'lumotlari, salomatlikka oid ma'lumotlar	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Marketing ta'minotchilari • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: Uchinchi tomon raqamli biznes korxonalari va chakana savdo hamkorlari	• Mahsulotlar / Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish / Kommunikatsiyalar • To'lov / Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qayta ishlash maqsad(lar)ida ortiq kerak bo'lmaganida yoki faolsizlikdan keyin ko'pi bilan 50 oydan keyin.
4. Mijozlar hisoblari tafsilotlari / Savdo ma'lumotlar	Umumiy demografika va psixografika, tranzaksiya va tijoriy axborot, onlayn va texnik axborot	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Marketing ta'minotchilari • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: Uchinchi tomon raqamli biznes korxonalari va	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qayta ishlash maqsad(lar)ida ortiq kerak bo'lmaganida yoki faolsizlikdan keyin eng ko'pi bilan 50 oydan keyin.

5. Biometrik ma'lumotlar	Biometrik ma'lumotlar	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: T/E	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qonuniy yoki normativ muvofiqlik maqsad(lar)ida saqlash talab etilmasa, qayta ishlash maqsadlarida ortiq kerak bo'lmagandan keyin.
6. Internet/Ilovadan foydalanish ma'lumotlari	Tranzaksiya va savdo ma'lumotlar, onlayn va texnik axborot ma'lumotlari, aqlli qurilmalar va sensor ma'lumotlar	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Marketing ta'minotchilari • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: Uchinchi tomon raqamli biznes korxonalari	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qayta ishlash maqsad(lar)ida ortiq kerak bo'lmaganida yoki qonun yoki shartnomaga asosan yana saqlash talab etilmasa, faolsizlikdan keyin ko'pi bilan 50 oydan keyin.
7. Joylashuv ma'lumotlari	Noaniq lokatsiya ma'lumotlari, aniq geojoylashuv ma'lumotlari	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Marketing ta'minotchilari • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: T/E	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniy/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qayta ishlash maqsad(lar)ida ortiq kerak bo'lmaganida yoki faolsizlikdan keyin eng ko'pi bilan 50 oydan keyin.
8. Audiovizual va o'xshash ma'lumotlar	Audiovizual ma'lumotlar, aqlli qurilmalar va sensor ma'lumotlar	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: T/E	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan	Qayta ishlash maqsad(lar)ida ortiq kerak bo'lmaganida yoki qonun yoki shartnomaga asosan yana saqlash talab etilmasa, faolsizlikdan keyin eng

			maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	ko'pi bilan 50 oydan keyin.
9. Professional yoki ish/bandlikka oid ma'lumotlar	Umumiy demografiya va psixografiya	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: Uchinchi tomon raqamli biznes korxonalari	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qonun yoki shartnoma tomonidan saqlash talab etilmasa, ortiq qayta ishlash maqsad(lar)ida talab etilmaganidan keyin.
10. Nodavlat ta'lim qaydlari	HR kontekstidan tashqarida (ushbu bildirgi qamrovidan tashqaridagi holatlar) qo'llanmaydi	HR kontekstidan tashqarida (ushbu bildirgi qamrovidan tashqaridagi holatlar) qo'llanmaydi	HR kontekstidan tashqarida (ushbu bildirgi qamrovidan tashqaridagi holatlar) qo'llanmaydi	HR kontekstidan tashqarida (ushbu bildirgi qamrovidan tashqaridagi holatlar) qo'llanmaydi
11. To'plangan ma'lumotlardan chiqarilgan xulosalar	Umumiy demografika va psixografika, xulosa qilingan ma'lumotlar	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Marketing ta'minotchilari • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: Uchinchi tomon raqamli biznes korxonalari va chakana savdo hamkorlari	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Ortiq qayta ishlash maqsad(lar)ida talab etilmaganidan keyin yoki Qayta ishlash maqsad(lar)ida ortiq kerak bo'lmaganida yoki qonun yoki shartnomaga asosan yana saqlash talab etilmasa, faolsizlikdan keyin eng ko'pi bilan 50 oydan keyin.

Nozik shaxsiy ma'lumotlar

Nozik shaxsiy ma'lumotlar toifasi	Toifadagi nozik shaxsiy ma'lumotlar turlariga misollar	Qabul qiluvchilar toifalari	Qayta ishlash maqsadlari	Saqlash muddati
1. Moliyaviy ma'lumotlar va	Moliyaviy ma'lumotlar.	Biznes maqsadlarda	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi	Qayta ishlash maqsad(lar)ida

hisobga kirishga imkon beruvchi hisob qaydnomalari	Qo'shimcha ravishda, biz P&G hisob login va parol birikmasini tizimlarimizda saqlaymiz.	oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: T/E	• Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	ortiq kerak bo'lmaganid yoki qonun yoki shartnomag asosan yana saqlash talab etilmasa, faolsizlikdan keyin eng ko bilan 50 oyda keyin.
Jismoniy va ruhiy salomatlik haqida ma'lumotlar	Jismoniy va ruhiy salomatlik haqida ma'lumotlar / holat / va tadqiqot yoki so'rov munosabati bilan iste'molchidan so'rashimiz mumkin bo'lgan ma'lumotlar. U mijoz biz bilan shikoyat qilish yoki mahsulotlarimizdan biridan foydalanish vaqtida yuz bergan salbiy holat haqida xabar berish uchun bog'langan vaqtidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: T/E	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar	Qayta ishlash maqsad(lar)i ortiq talab etilmasa.
Aniq geojoylashuv ma'lumotlari	Aniq geojoylashuv ma'lumotlari	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Marketing ta'minotchilari • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: T/E	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qayta ishlash maqsad(lar)i ortiq talab etilmasa.
Irqiy yoki etnik kelib chiqish	Umumiy demografiya va psixografiya	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Marketing ta'minotchilari • Hamkorlar va aloqador	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik	Qayta ishlash maqsad(lar)i ortiq kerak bo'lmaganid yoki qonung asosan yana saqlash talab etilmasa, faolsizlikdan

		korxonalar	• Hisob-kitob yuritish • Qonuniylik/Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	keyin eng ko'p bilan 50 oydan keyin.
		Sotuv/Ulashish: • Biznes ta'minotchilar • Marketing ta'minotchilari		
Iste'molchining noyob xususiyatlarini aniqlash maqsadida biometrik ma'lumotlarning qayta ishlanishi	Qo'llanmaydi	Qo'llanmaydi	Qo'llanmaydi	Qo'llanmaydi
Iste'molchining salomatligiga oid shaxsiy ma'lumotlar <i>*Ushbu shaxsiy ma'lumotlar o'z ichiga tashxis ma'lumotlarini emas, balki demografik yoki xarid ma'lumotlarini oladi va bu ma'lumotlar bizga siz qaysi mahsulotlarga qiziqishingiz mumkin ekanligini aniqlashga yordam beradi.</i>	Salomatlikka oid ma'lumot	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Hamkorlar va aloqador korxonalar Sotuv/Ulashish: Uchinchi tomon raqamli biznes korxonalari va chakana savdo hamkorlari (qonun ruxsat beradigan yurisdiksiyalarda)	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • To'lov/Moliya • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • Xavfsizlik • Hisob-kitob yuritish • Qonuniy / Muvofiqlik • Tadqiqotlar va ishlanmalar • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qayta ishlanish maqsad(lar)ini ortiq kerak bo'lmaganidagi yoki qonunga asosan yana saqlash talab etilmasa, faolsizlikdan keyin eng ko'p bilan 50 oydan keyin.
To'plangan ma'lumotlardan chiqarilgan xulosalar	Irqiy yoki etnik kelib chiqish Umumiy demografiya va psixografiya	Biznes maqsadlarda oshkor qilish: • Biznes ta'minotchilar • Marketing ta'minotchilari • Hamkorlar va aloqador korxonalar	• Mahsulotlar/Xizmatlar • Mijozlar boshqaruvi • Mijozlarga xizmat ko'rsatish/Kommunikatsiyalar • Reklama taqdim etish • Reklamani boshqarish • Sifat va xavfsizlik • To'plash vaqtida bildirilgan maqsadlar • Qonuniy biznes maqsadlar	Qayta ishlanish maqsad(lar)ini uchun ortiq kerak bo'lmaganidagi keyin va to'planganidagi keyin maksimal 24 soat ichida o'chiriladi.

Biz yana jadvalda keltirilgan har bir toifadagi shaxsiy ma'lumotlar va nozik shaxsiy ma'lumotlarni Sotuv yoki Ulashishni hosil qilmaydigan shaklda quyidagi qabul qiluvchilar toifalariga oshkor qilishimiz mumkin:

- Iste'molchi yoki boshqaruvingizdagi yoki qasddan qilgan harakatingiz bo'yicha boshqa tomonlarga

- Shaxsiy ma'lumotlar [qonuniy va shunga o'xshash maqsadlarda oshkor qilingan qabul qiluvchilar](#)
- Qo'shimcha ravishda, biz va/yoki qonuniy majburiyatlar o'rnatgan shartnomaviy cheklovlar qo'llanishi mumkin bo'lgan yuqoridagi jadvalda keltirilgan bizning Ta'minotchilar va boshqa qabul qiluvchilar sizning shaxsiy ma'lumotlaringizdan biznes maqsadlarda foydalanishlari va oshkor qilishlari mumkin. Masalan, yuqoridagi jadvalda keltirilgan Ta'minotchilarimiz va boshqa toifadagi qabul qiluvchilar biz uchun xizmat ko'rsatish yoki biznes maqsadlarimizda qayta ishlash uchun o'z sub-pudratchilarini jalb qilishi mumkin.

✓ **Iste'molchilar huquqlari so'rovlari**

Quyida batafsil tavsiflanganidek, tekshirilishi mumkin bo'lgan iste'molchi so'roviga (quyida tavsiflangan) qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, biz aniqlik uchun ma'lum mamlakatlarning rezidentlari bo'lgan iste'molchilarga ushbu bo'limda tavsiflangan maxfiylik huquqlarini taqdim etamiz. Iste'molchilarning maxfiylik huquqlari bo'lmagan mamlakatlarning rezidentlari uchun biz so'rovlarni ko'rib chiqamiz, ammo bunday so'rovlarni qayta ishlashni o'z xohishimizga qoldiramiz.

Iste'molchilarning maxfiyligi to'g'risidagi qonunlarni qabul qilgan, ammo hali kuchga kirmagan mamlakatlar uchun biz bunday qonunlar kuchga kurgunga qadar davlat qonunchiligi huquqlarini qo'llashni ham ko'rib chiqamiz, lekin buni o'z ixtiyorimizga ko'ra amalga oshiramiz.

✓ **So'rov qilish va so'rovlar qamrovi**

AQSH Maxfiylik qonunlariga asosan ruxsat etilganidek, siz bizga yuborgan ayrim so'rovlar quyida "So'rovingizni tekshirish" bo'limida tavsiflanganidek, shaxsni tasdiqlash jarayonidan ("**Tekshiriladigan iste'molchi so'rovi**") o'tkaziladi. Biz shaxsiy ma'lumotlarini to'plagan Iste'molchi siz ekaningizni isbotlash uchun yetarlicha ma'lumotlarni taqdim etmasangiz, biz bunday so'rovlarni bajarmaymiz.

So'rov yuborish uchun quyidagi uslublardan biri yordamida biz bilan bog'laning. Sotmang/Ulashmang/Maqsad qilmang so'rovini yuborish bo'yicha batafsil ko'rsatmalar, cookie fayl bo'lmagan PI (quyida belgilangani kabi) uchun quyidagi "[Sotmang/Ulashmang/Maqsad qilmang](#)" bo'limiga o'ting.

- Biz bilan bog'lanish uchun **(877) 701-0404** raqamiga qo'ng'iroq qiling
- Bizning [Parametrlar markazimizga](#) (unga veb-saytlarimiz pastki qismidagi "[Maxfiylik tanlovlaringiz](#)" havolasi yoki mobil ilovalardagi Sozlamalar menyusi orqali kirish mumkin) kirish

Biz siz haqingizda saqlaydigan ayrim shaxsiy ma'lumotlar shaxsiy ma'lumotlaringiz ekanini tasdiqlashimiz uchun yetarli darajada boshqa shaxsiy ma'lumotlaringiz bilan bog'lanmagan (masalan, faqat psevdonimli brauzer identifikatoriga bog'langan

clickstream ma'lumotlari). Biz bunday so'rovlarga berilgan javobga shaxsiy ma'lumotlarni kiritmaymiz. Agar tekshirilgan so'rovni rad etsak, biz javobimizda rad etish sabablarini keltiramiz. Sizdan Tekshiriladigan iste'molchi so'rovini yaratish uchun bizda parol bilan himoyalangan hisob ochishingiz talab etilmaydi. Tekshiriladigan iste'molchi so'rovida keltirilgan shaxsiy ma'lumotlardan agar siz buni bizga boshqa maqsadda ham bermagan bo'lsangiz faqat sizning shaxsingizni yoki so'rovni yuborish vakolatini tekshirish hamda so'rovga javoblarni kuzatish va hujjatlashtirish uchun foydalanamiz.

Biz to'playdigan, qayta ishlaydigan, saqlaydigan, oshkor qiladigan va boshqa yo'llar bilan foydalanadigan shaxsiy ma'lumotlarni aniqlash va maxfiylik so'rovlaringizga javob berish uchun tijoriy oqilona choralar ko'ramiz. Biz odatda so'rovlaringizga to'liq javob berish uchun to'lov olmaymiz; ammo, agar so'rovingiz haddan tashqari ko'p, takroriy, asossiz yoki haddan tashqari qiyin bo'lsa, so'rov bo'yicha chora ko'rishdan bosh tortishimiz mumkin. Agar so'rovga rad javobini beradigan bo'lsak, biz sizga bunday qaror qabul qilishimizni tushuntirgan bildirgi yuboramiz.

✓ So'rovingizni tekshirish

Shaxsiy ma'lumotlaringiz daxlsizligini himoya qilish va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlab turish uchun sizga shaxsiy ma'lumotlaringizga kirishga ruxsat berish yoki ma'lumotlarni o'chirib tashlash haqidagi iltimosingizni ko'rib chiqish uchun kimligingizni tasdiqlash bo'yicha qadamlar qo'yamiz. Iltimosingizni olishimiz bilan sizga e-pochta yoki pochta orqali tasdiqlash shaklini yuboramiz. Iltimosingiz bajarilishi uchun tasdiqlash shaklini olgandan so'ng unga javob qaytaring. Biz kimligingizni tasdiqlash uchun quyidagi ma'lumotlardan istalganini berishingizni talab qilishimiz mumkin: Ism, e-pochta manzili, pochta manzili yoki tug'ilish sanasi.

Biz so'rovingizning bir qismi sifatida taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshiramiz va ushbu tekshirish jarayonining bir qismi sifatida sizdan elektron pochta yoki boshqa vositalar orqali qo'shimcha ma'lumot berishingizni so'rashimiz mumkin. Biz shaxsiy ma'lumotlarini to'plagan Iste'molchi siz ekaningizni isbotlash uchun yetarlicha ma'lumotlarni taqdim etmasangiz, sizning Bilish huquqingiz (Toifalar), Bilish huquqingiz (Maxsus qismlar/Portativlik), O'chirish huquqingiz yoki Tuzatish huquqingizni amalga oshirmaymiz. Ayni tekshirish jarayoni Sotuv yoki Ulashish xizmatlarini bekor qilish yoki nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus toifadagi ma'lumotlar so'rovlarini cheklash uchun qo'llanilmaydi, lekin agar firibgarlikni gumon qilsak, ayrim tekshirish choralari qo'llashimiz mumkin.

Bizning har bir so'rov turi uchun qo'llaydigan tekshirish standartlarimiz farqlanishi mumkin. Biz sizning toifalar bo'yicha so'rovlaringizni va muayyan o'chirish va to'g'irlash so'rovlarini (masalan, tabiatan kam sezgir bo'lganlar) o'rtacha aniqlik darajasida tekshiramiz, jumladan, siz taqdim etgan kamida ikkita ma'lumot nuqtasini biz tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ma'lumotlar nuqtalari bilan mos kelishini o'z ichiga olishi mumkin. Ayrim o'chirish va to'g'irlash so'rovlari uchun (masalan, nisbatan nozikroq bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarga aloqador so'rovlar) va

alohida qismlar so'rovlari uchun biz yuqori darajadagi aniqlik standartini qo'llaymiz. Ushbu standart siz taqdim etgan kamida uchta ma'lumot nuqtasini biz sizni tekshirish uchun yetarlicha ishonchli deb hisoblaydigan siz haqingizda saqlaydigan ma'lumotlar nuqtalariga solishtirishni o'z ichiga oladi va bunga yolg'on guvohlik berish ogohlantirishi ostida sizdan siz so'ralgan shaxsiy ma'lumotlarning egasi ekaningizni bildiruvchi imzolangan tasdiqlovni olishni o'z ichiga olishi mumkin.

Agar sizni talab etilgan ma'lumotlarni taqdim etmaganingiz tufayli ayrim so'rovlar borasida tekshira olmasak, biz ayrim AQSH Maxfiylik qonunlari bo'yicha talab etilgan ma'lum harakatlarni amalga oshiramiz. Masalan:

- Agar o'chirish so'rovingizni tekshira olmasak, biz ma'lumotlar amaliyotlarimizning umumiy tavsifi uchun sizni ushbu AQSH Davlat maxfiylik bildirgisiga yo'llaymiz.
- Agar ma'lum so'rovingiz qismini tekshira olmasak, uni toifalar so'rovi sifatida qayta ishlaymiz.

✓ **Agentga vakolat berish**

Siz yuqorida tasvirlangan shakllarda so'rov yuborish orqali nomingizdan so'rov yuborish uchun vakolatli agent tayinlashingiz mumkin. Agar siz so'rov yubormoqchi bo'lgan vakolatli agent bo'lsangiz, AQSH Maxfiylik qonunlari bizdan agent tomonidan yuborilgan so'rov Tekshirilishi mumkin bo'lgan iste'molchi so'rovi ekaniga ishonch hosil qilishimizni talab qiladi (Sotmang/Ulashmang so'rovlaridan tashqari) va bizga Iste'molchi o'z nomidan so'rov kiritishingiz uchun sizga vakolat berganini tekshirish uchun qo'shimcha ma'lumot so'rash imkonini beradi. Umuman olganda, biz agentdan iste'molchi agentga so'rov yuborish uchun imzolangan ruxsatnomani taqdim etganini isbotlashni so'raymiz va AQSH Maxfiylik qonunlariga ko'ra, biz iste'molchidan o'z shaxsini tasdiqlashini yoki agentga so'rovni yuborish uchun ruxsat berganini bevosita tasdiqlashini talab qilishimiz mumkin. Iste'molchi nomidan vakolatli agent sifatida so'rov kiritish uchun [bu yerga](#) bosing.

✓ **Shikoyat qilish huquqlari**

Siz so'rovingiz rad etilishi yuzasidan [bu yerga](#) shikoyat kiritishingiz mumkin.

✓ **Bilish/Foydalanish huquqi**

✓ **Bilish huquqi-- Toifalar so'rovi**

Siz 12 oylik davrda ikki marta biz siz haqingizda so'nggi 12 oy davomida to'plagan shaxsiy ma'lumotlardan quyidagi ma'lumotlarni so'rab olishingiz mumkin:

- biz siz haqingizda to'plagan shaxsiy ma'lumotlar toifalari;
- biz shaxsiy ma'lumotlarni to'plagan manbalar toifalari;

- biz shaxsiy ma'lumotlarni to'plaganimiz yoki sotganimizning biznes yoki tijorat maqsadi;
- biz shaxsiy ma'lumotlarni sotgan yoki ulashgan uchinchi tomon toifalari, shaxsiy ma'lumotlar sotilgan yoki ulashilgan uchinchi tomonlarning har bir toifasi uchun shaxsiy ma'lumotlar toifasi yoki toifalari bo'yicha;
- biz siz haqingizdagi biznes maqsadida oshkor qilgan shaxsiy ma'lumotlar toifalari hamda biz ma'lumotlarni biznes maqsadida oshkor qilgan shaxslarning toifalari.

✓ **Bilish huquqi-- Maxsus qismlar**

Siz so'rovingizdan oldingi 12 oylik davr uchun biz siz haqingizda to'plagan shaxsiy ma'lumotlarning maxsus qismlarining ko'chiriladigan nusxasini talab qilish huquqiga egasiz. Shaxsiy ma'lumotlar bizda turli vaqtlarda saqlanishiga e'tibor qarating, shuning uchun biz siz haqingizda to'plagan va biz ularni hatto 12 oy davomida saqlamaydigan ayrim ma'lumotlar bo'lishi mumkin (va shuning uchun ularni sizga yuborgan javobimizga kiritish imkonsiz). Shuni ham yodda tutingki, 12 oylik muddatda ma'lum miqdordagi "bilish huquqi" so'rovlarini yuborish amaldagi shtat/davlat qonunchiligiga binoan cheklanishi mumkin.

✓ **O'chirish huquqi**

Bundan tashqari, biz sizdan to'plagan ayrim shaxsiy ma'lumotlarni o'chirib tashlashimizni talab qilishga ham haqqingiz bor. P&G kompaniyasi shaxsiy ma'lumotlar ularni ichki biznes maqsadlari uchun saqlab turish zarur bo'lganida va bunga tegishli AQSH maxfiylik qonunlari ruxsat etgan taqdirda (masalan, firibgarlikning oldini olish yoki huquqiy mutanosiblik uchun) shaxsiy ma'lumotlarni o'chira olmasligini tushunishingiz so'raladi. Bunday vaziyatlarda biz shaxsiy ma'lumotlaringizni yozuvlarni saqlash dasturimizga asosan saqlab turamiz va saqlab turish vaqti tugagach, ularni xavfsiz tarzda o'chirib tashlaymiz.

✓ **To'g'irlash huquqi**

Sizda biz saqlaydigan shaxsiy ma'lumotlaringizda topilgan noaniqliklarni to'g'irlashni so'rash huquqingiz bor. Sizning to'g'irlash so'rovingiz tekshiruvni (yuqorida aytilgan) va tegishli AQSH Maxfiylik qonunlaridagi javob standartlarini talab etadi.

✓ **Nozik shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni cheklash huquqi**

Ayrim shaxsiy ma'lumotlar AQSH Maxfiylik qonunlariga asosan "nozik shaxsiy ma'lumotlar" yoki "maxsus toifadagi ma'lumotlar" sanaladi va biz ularga AQSH Davlat maxfiylik bildirgisida "nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus toifadagi ma'lumotlar" deb murojaat qilamiz. Ayrim AQSH Maxfiylik qonunlari nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus toifadagi ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilikni talab qiladi, bu ma'lum istisnolardan kelib chiqib bekor qilinishi mumkin (masalan, siz

maxsus so'ragan mahsulot yoki xizmatni taqdim etish uchun nozik shaxsiy ma'lumotlaringiz yoki maxsus toifadagi ma'lumotlaringizga ishlov berish talab etilsa). Qo'llash mumkin bo'lgan holatlarda, yashaydigan davlatingizga qarab, bunday rozilikni bekor qilishga va/yoki korxonalarga agar ular bu ma'lumotlardan ma'lum ichki biznes maqsadlaridan tashqarida foydalansa yoki oshkor qilsa, nozik shaxsiy ma'lumotlar yoki maxsus toifadagi ma'lumotlardan foydalanish va oshkor qilishni cheklashni buyurish huquqiga egasiz. Siz yuqoridagi uslublardan foydalanib bunday so'rovni kiritishingiz mumkin.

✓ **Avtomatik qaror qabul qilish va profaylingga oid huquqlar**

